

CROSSEREF DOI:- 10.37547/gbps-09

DATE:- 31-12-2022



2022

**THE ISSUES OF MANAGEMENT OF INNOVATIVE
ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE
BUSINESS ENTITIES IN FERGANA REGION**

ISBN 978-1-957653-11-2

A.Temirqulov, H.Fozilov, V.Yakubov

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

FERGANA POLYTECHNIC INSTITUTE

A.Temirqulov, H.Fozilov, V.Yakubov

**THE ISSUES OF MANAGEMENT OF
INNOVATIVE ACTIVITIES OF SMALL
BUSINESS AND PRIVATE BUSINESS ENTITIES
IN FERGANA REGION**

(Monograph)

FERGANA – 2022

THE ISSUES OF MANAGEMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE BUSINESS ENTITIES IN FERGANA REGION

Authors: A. Temirkulov, H. Fozilov, V. Yakubov

Responsible editor:

D.Q.Qudbiyev, Doctor of Economics, Professor, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

Reviewers:

A. Ergashev, PhD, Docent, Dean of the Faculty of Economics, Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

A. Davlyatshayev, Docent, Candidate of Economic Sciences, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

A. Temirkulov (PhD in Economics, Lecturer, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan), H. Fozilov (Lecturer, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan), V. Yakubov (Lecturer, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan). The issues of management of innovative activities of small business and private business entities in Fergana region / Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2022. 106 p.

In the monograph work, specific aspects of effective management of innovative activities of one of the main branches of the economy - small business, economic reforms implemented in the field, their development trends and prospects are developed, and ways to eliminate existing problems are described.

The monograph is intended for students of higher educational institutions in the field of economics, scientific workers, and all readers interested in small business activities.

The work of the monograph was reviewed by the board of the Fergana Polytechnic Institute and recommended for publication. Protocol No. 10, July 30, 2022.

UDC: 334.722(075)

LBC: 65.9(2)09

ISBN: 978-1-957653-11-2

Crossref doi:- 10.37547/gbps-09

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI**

A.Temirqulov, H.Fozilov, V.Yakubov

**FARG‘ONA VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA
XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB‘YEKTLARI
INNOVASION FAOLIYATINI BOSHQARISH
MASALALARI**

MONOGRAFIYA

FARG‘ONA – 2022

FARG‘ONA VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB‘YEKTLARI INNOVASION FAOLIYATINI BOSHQARISH MASALALARI

Mualliflar: A.Temirqulov, H.Fozilov, V.Yakubov

Mas’ul muharrir:

D.Q.Qudbiyev, Farg‘ona politexnika instituti professori, iqtisod fanlari doktori

Taqrizchilar:

A.Ergashev, Farg‘ona davlat univesiteti, “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, PhD, dotsent

A.Davlyatshayev, Farg‘ona politexnika instituti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

*Farg‘ona viloyatidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari innovasion faoliyatini boshqarish masalalari/ **Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2022.** – 102 bet.*

Monografiya ishida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri – kichik biznesning innovasion faoliyatini samarali boshqarishning o‘ziga xos jihatlari, sohada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ularning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari ishlab chiqilib, mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan.

Monografiya iqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarining talabalari, ilmiy xodimlari, kichik biznes faoliyati bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Monografiya ishi Farg‘ona politexnika instituti kengashida ko‘rib chiqilgan va chop etishga tavsiya qilingan. Bayon № 10, 30 iyul 2022 yil.

UO‘K: 334.722(075)

KBK 65.9(2)09

ISBN: 978-1-957653-11-2

Crossref doi:- 10.37547/gbps-09

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
I-BOB. KICHIK BIZNESDA INNOVASION FAOLIYATI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI	13
1.1. Kichik biznesda innovasion faoliyatning mazmuni va turlari	13
1.2. Hududlar iqtisodiyotda tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillarning nazariy asoslari	38
1.3. Innovasion tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari	46
I-bob bo'yicha xulosalar	58
II BOB. FARG'ONA VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATLARINI INNOVASIONI BOSHQARISH.....	59
2.1. Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik faoliyati rivojlanishidagi o'zgarish tendensiyalari.....	59
2.2. Tadbirkorlik sohasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlarining SWOT tahlili	66
II-bob bo'yicha xulosalar	69
III-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZASIYALASH SHAROITIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INNOVASION BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INFRATUZILMALAR SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH	71
3.1. Tadbirkorlik faoliyatini tashkiliy-iqtisodiy boshqarish mexanizmini takomillashtirish masalalari.....	71
3.2. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish infratuzilmasi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	83
III-bob bo'yicha xulosalar.....	91
XULOSA VA TAKLIFLAR	93
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	97

...biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma‘rifat va innovasiya bilan erisha olamiz...

...biznes muhitini yanada yaxshilash biz uchun eng muhim masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Jahon bankining “Biznes yuritish” reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo‘yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qildik. Hukumat ushbu tadbirlarning amaliy ijrosini samarali tashkil etishi zarur¹.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

Respublikamiz mustaqilligining 31 yilligi arafasida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning barcha sohalarda islohotlar o‘tkazish tufayli erishilgan natijalariga nazar tashlasak ijobiy yutuqlarga erishganimizga ishonch hosil qilamiz. Buning eng muhim sabablaridan biri barcha sohalarning rivojidadagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab uni amalga oshirilishidir.

Iqtisodiyotda alohida diqqat-e’tibor berilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Milliy iqtisodiyotda jahon bozoridagi kon’yunkturaga muvofiq ravishda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi xo‘jalik munosabatlarini rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish va pirovard natijada aholi turmush darajasini oshirishda kichik biznes va tadbirkorlikning hal qiluvchi o‘rin egallab borishiga erishishga alohida diqqat qaratildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini, yalpi milliy mahsulot (YAMM) tarkibi va sifatini belgilaydigan yetakchi tarmoq

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020 yil. Manbaa: <https://prezident.uz/uz/lists/view/3324>

hisoblanadi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes ulushining 60-70 foizini tashkil etadi. Aksariyat mamlakatlarda, masalan, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, ulkan ulushi - korxonalar sonining 99,3–99,7% - kichik va o‘rta korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda barcha mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy va mutanosib rivojlantirish asosida makroiqtisodiy barqarorligini ta‘minlash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Modernizasiyalash sharoitida iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishi bevosita shu hududdagi mavjud mehnat, moliyaviy, moddiy va yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Alohida olingan hudud iqtisodiyoti, uning tarmoq va sohalarini, ayniqsa, kichik biznes sub’yektlarini yangi texnologiya va zamonaviy boshqaruv mexanizmlariga asoslangan innovasion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish mavjud resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanishga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning milliy xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes yuritish, iqtisodiyotimizga mahalliy va xorijiy investisiyalarni keng jalb etish uchun zarur sharoit va qulay muhit yaratish borasida biz ulkan ishlarni amalga oshirdik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda: “Birinchida marta tadbirkorlarga ichki bozorda sotgan mahsuloti bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining bir qismini qaytarish tartibi joriy etilmoqda. Hozirgacha bu tartib faqat mahsulot eksport qilinganda qo‘llanar edi. Buning hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida 3,4 trillion so‘m yoki o‘tgan yilga nisbatan 2,5 barobar ko‘p mablag‘ qoladi.

Endi tadbirkor tomonidan to‘langan ortiqcha soliq o‘z muddatida qaytarilmasa, unga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo‘yicha byudjetdan foiz to‘lanadi. Buning ahamiyatini mana shu zalda o‘tirgan va “oynai jahon” orqali mening so‘zlarimni eshitayotgan tadbirkorlar, o‘ylaymanki, hammadan ko‘ra yaxshi tushunadi.

Soliq kodeksi normalarini har bir soliq xodimi, tadbirkorlar va soliq to'lovchilar puxta o'zlashtirishi, buning uchun ularni muntazam ravishda o'qitish zarur.

Soliq xizmati xodimlari dunyoqarashini tubdan o'zgartirish va malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida Davlat soliq qo'mitasi qoshida Fiskal institutini tashkil etishni taklif qilaman. Bu jarayonga katta tajribaga ega bo'lgan nufuzli xorijiy ekspertlarni jalb etish zarur.

Shu bilan birga, tadbirkorlarni ko'p qiynaydigan soha – lisenziyalash va ruxsatnomalar berish tartiblarini jiddiy o'zgartiramiz. Ochiq aytish kerak, mavjud 280 ga yaqin lisenziya va ruxsatnomalar orasida faoliyat turlari hisobini yuritish, mablag' undirish yoki shunchaki nazorat qilish uchun joriy qilinganlari ham bor. Bu esa tadbirkorlarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda"².

Shuni qayd etish joizki, tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ruxsatnoma olish jarayonida to'lanadigan xarajatlar 8 barobar kamaytirildi, banklarda hisobraqam ochish uchun to'lovlar bekor qilindi va shu borada boshqa zarur tadbirlar amalga oshirildi.

Alohida olingan hudud iqtisodiyotini, uning tarkibiy tuzilishidagi tarmoq va sohalarning holatini ekonometrik baholash, tadbirkorlik sub'yektlarining boshqaruv tizimlarida innovasion mexanizmlarni joriy etish imkoniyatlarini aniqlash, kichik biznes sub'yektlarida fan va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash asosida ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarishning startegik yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri sanaladi.

Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, tashabbuskorlikni rag'batlantirish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020 yil. Manbaa: <https://prezident.uz/uz/lists/view/3324>

o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli 3-ustuvor yo'nalishidagi asosiy maqsadlardan biri "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish"³ bo'yicha muhim vazifalar berilgan. Mazkur vazifalarning hal etilishi hududlarda tadbirkorlik faoliyatini innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni talab qilib, bu tanlangan magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishi bevosita shu hududdagi mavjud mehnat, moliyaviy, moddiy va yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Alohida olingan hudud iqtisodiyotini, uning tarmoq sohalaridagi tarkibiy va diversifikatsion o'zgartirish sharoitida ilmiy salohiyatdan yanada omilkorlik bilan foydalanish, fan-texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga joriy etish, mahalliy kichik biznes sub'yektlarida ilmtalab mahsulotlar hissasini oshirishning shart-sharoitlarini va imkoniyatlarini ekonometrik modellarni qo'llash asosida aniqlash orqali hudud iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadbirkorlikning tashkil etilishi va rivojlanishining nazariy asoslari A.Smit, I.Shumpeter, F.Xayeklarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan⁴.

Kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik nazariyasining shakllanishi, uning amaliyotga tatbiq etilishiga A.V.Busygin, G.Gross, M.G.Lapusta, Yu.L.Starostin, R.Xizrig, M.Piters, Yu.M.Osipova, B.A.Rayzberg,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Manbaa: www.norma.uz

⁴ Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. – М.: Ось-89, 1997. – 256 с.; Шумпетер И. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982. – 455 с.; Хайек Ф. Познание, конкуренция и свобода. Аналогия сочинений. – М.: Пневма, 1990. – 309 с.

V.A.Rube kabi xorijlik va MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari o'z hissalarini qo'shganlar⁵.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati rivojlangan bozor tizimi shart-sharoitlarini tahlil etishga taalluqli bo'lib, ularda rejali tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi kichik biznes innovasion rivojlanish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Farg'ona viloyatidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmunini iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish va uning mamlakat hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada chuqur o'rganish zaruriyati tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot ishining asosiy maqsadi – Farg'ona viloyatidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini baholash, uning innovasion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va maqsadli dasturini shakllantirishdan iborat.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot ishining asosiy vazifalari sirasiga:

- alohida olingan hudud doirasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanishining nazariy, huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslari tadqiq etiladi;
- kichik innovasion tadbirkorlikning mazmuni va tasniflanishi tadqiq etiladi;
- hududda ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning mavjud holati va undagi innovasion tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari o'rganiladi;
- tadbirkorlik sub'yektlaridagi mavjud resurslardan samarali foydalanish omillari va imkoniyatlari aniqlanadi;

⁵ Бусыгин А.В. Предпринимательство. – М.: ИНФРА-М, 1997. – 608 с.; Gross H. Small Business in Grossen Market. – Dusseldorf, 1958. – 150 p.; Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. – М.: ИНФРА-М, 2004. – 454 с.; Осипова Ю.М. Основы предпринимательского дела. – М.: Дело, 1995. – 432 с.; Хизриг Р, Питерс М. Предпринимательство. – М.: Дело, 1991. – 159 с.; Райзберг Б.А. Основы экономики предпринимательства. – М.: Знание, 1995. – 206 с.; Райзберг Б.А. Основы бизнеса. – М.: Экономика, 1996. – 192 с.; Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория и практика. – М.: 2000. – 231 с.

- kichik biznes sub'yektlarida resurslardan oqilona foydalanishning ekonometrik modellari va uning axborot bazasi ishlab chiqiladi;

- hududda zamonaviy boshqarish texnologiyalarini qo'llash yordamida kichik biznes sub'yektlarini shakllantirish va rivojlantirishning usullari va shakllari ishlab chiqiladi;

- Farg'ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovasion rivojlantirish strategiyasi va dasturi ishlab chiqiladi.

Tadqiqot usullari bo'lib tizimli yondoshish, guruhlash, tanlama kuzatish, sosiologik tadqiqot, ekspert baholash, korrelyasion-regression tahlil, iqtisodiy-statistik va ekonometrik modellashtirish xizmat qiladi.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari kiritiladi.

Tadqiqotning predmeti mamlakatni modernizasiyalash sharoitida alohida olingan hudud miqyosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni zamonaviy innovasion texnologiyalar yordamida boshqarishda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida olingan ilmiy xulosalar, va amaliy tavsiyalardan ushbu mavzuga bag'ishlangan, maxsus yanada chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, kichik biznesni innovasion rivojlantirish borasidagi umumdavlat va hududiy, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotdagi kichik biznesning O'zbekiston milliy iqtisodiyotida tutgan o'rnini, uning rivojiga ta'sir etuvchi omillar va bozor raqobati sharoitida kichik biznesning rivojlanish tahlili, O'zbekistonda kichik biznesning tashkiliy-huquqiy shakllari va huquqiy ta'minoti, kichik biznes sub'yektlarining soliq, bank, moliya muassasalari bilan aloqasi, kichik biznes rivojidagi ayrim muammolar va ularning yechimlariga tegishli yangi qirralari ishlab chiqilib, ularning oldida turgan muammolar hamda yechimlar yoritib berilgan.

Tadqiqotning nazariy-huquqiy va uslubiy asosi. Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosi bo‘lib, kichik innovasion tadbirkorlik, uni ekonometrik modellashtirish va rivojlanish istiqbolni belgilash yuzasidan xorijiy va vatanimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotchilik ishlari xizmat qildi.

Tadqiqot ishining huquqiy-me’yoriy asosi bo‘lib tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga oid O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari va huquqiy-me’yoriy hujjatlari xizmat qiladi.

Tadqiqot ishini tarkibi kirish, nazariy qism, tahliliy qism va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I-BOB. KICHIK BIZNESDA INNOVASION FAOLIYATI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Kichik biznesda innovasion faoliyatning mazmuni va turlari

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi globallashuv va xalqaro integrasiyalashuvning shiddat bilan rivojlanishida o'z ifodasini topmoqda. Bunday sharoitda innovasion faoliyat ham zamon va makonda tez sur'atlar bilan taraqqiy topmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishni modernizasiyalash jarayonlari yalpi ichki mahsulot tarkibida borgan sari ulushi ko'payib borayotgan va aholi bandligini ta'minlashda hissasi katta bo'lgan kichik biznes sohalarida ham o'z aksini topmoqda. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil va yuqori sur'atlar bilan rivojlanishining muhim shartlaridan biri sohaga innovasion boshqaruv tizimlarini qo'llash, ilmtalab yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

“Innovasiya” atamasi xorijiy tillardan kirib kelgan bo'lib, uning o'zbek tilidagi talqini ilmiy adabiyotlarda “yangilik kiritish”, “yangilanish” ma'nosida keltirilgan. “Innovasiya” atamasining lug'aviy ma'nosi adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Chunonchi, XX asrning birinchi yarmi iqtisodchilari orasida Yozef Aloiz Shumpeter birinchi marta mazkur termindan ilmiy qarashlarida foydalangan. Alohida o'rin egallaydi. Uning zamonaviy iqtisodiy fikrlashga ko'rsatgan ta'siri neoklassik maktab vakillari ta'siridan kam emas. Aynan shu olim: “Innovasiya – ishlab chiqarishni olg'a suruvchi va unda normal darajadan katta bo'lgan daromadning asosiy manbasi bo'luvchi raqobat mexanizmi” sifatida ta'riflagan. Rus tilida A.Azriliyan tahriri ostida chop etilgan lug'atda esa innovasiya atamasi “texnika va texnologiya avlodini almashtirishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotga mablag' kiritish” deb izoh berilgan. V.A.Makarenko

esa mazkur iboraga qarshi chiqmagan holda uning mazmunini yanada umumlashtirib, keng va chuqur talqin etgan: “innovasiya – bu :

- texnika va texnologiya avlodini almashuvini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotga mablag' yo'naltirish;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining mahsuli bo'lgan yangi texnika, texnologiyadan foydalanish;
- yangi g'oyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tadbiiq etish;
- yakka tusdagi, takrorlanmas, siyosiy dasturlarni amalga oshirish;
- tilshunoslikda yangidan tashkil etish, nisbatan yangi ko'rinish.

Ilmiy adabiyotlarda “innovasiya” atamasini alohida kategoriya sifatida umumiy ta'riflashga ko'proq e'tibor qaratilgan, jumladan, uni “yangi texnika yoki texnologiyaga, mehnatni tashkil qilishga, xizmat ko'rsatishga, boshqaruvga va boshqa maqsadlarga kiritilgan moddiy va nomoddiy mulk”, “yangi mahsulot, xizmatlarni amaliy o'zlashtirish natijasi”, “yangilanishga qilingan investisiya” kabi mazmunda izohlar berilgan. Ammo kichik biznes sub'yektlarida innovasion tadbirkorlikning mohiyatini to'la ochib berish masalasi yetarli bayon etilmagan.

Shu ma'noda, yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, “Innovation tadbirkorlik” iborasining ilmiy talqini sifatida quyidagi ta'rifni keltirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: “Innovation tadbirkorlik – daromadlikni oshirish maqsadida iqtisodiy tizimdagi statistik jarayonni dinamik jarayonga o'zgartiruvchi ilmiy-texnika yangiliklarini joriy etishga yo'naltirilgan intellektual faoliyatdir”.

Kichik biznesda innovasion faoliyatni loyihalash va joriy etish, uning boshqaruv tizimini takomillashtirish, mavjud ishlab chiqarish va moddiy texnik bazasini yangi g'oya va ishlanmalar asosida rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Mazmunidan kelib chiqqan holda kichik biznesda yangi texnologiyalarni qo'llash quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi:

- boshqaruv jarayonini yangilash, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda zamonaviy axborot-kommunikasion tizimlar va iqtisodiy-matematik modellardan foydalanish;
- yangi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirish;
- yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkiliy shakllarini joriy etish;
- “ta’minot – ishlab chiqarish – sotish” bosqichlarining optimal tizimini shakllantirish.

Innovasiyaning xususiy tadbirkorlik sub’yektlaridagi xarakterli belgilari sifatida samaradorlik, yangilik va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatish mumkin.

Innovation tadbirkorlikni kichik biznes sub’yektlariga nisbatan tasniflashda ichki va tashqi innovasiyaga bo‘lib talqin etish maqsadga muvofiqdir. Ichki innovasiyalar sub’yektning mavjud resurslari doirasida yoki qo‘shimcha mablag‘ jalb qilgan holda ichki tizimni takomillashtirishni nazarda tutsa, tashqi innovation faoliyatning natijasi tarmoq, hudud yoki mamlakat miqyosidagi jarayonlarga ta’sir etadi.


Innovation faoliyat joylardagi mavjud imkoniyatlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Fikrimizcha, zamonaviy texnologiyalar asosida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning innovation imkoniyatlarini quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir (1-chizmaga qarang).

Tadbirkor va ishbilarmonlarning imkoniyatlari deganda hududda yashayotgan mehnat layoqatli aholining ilmiy layoqati, mentaliteti va kasbiy ixtisoslashuvi kabilar nazarda tutiladi.

Hududiy innovation imkoniyat ma’lum mintaqadagi salohiyat va resurslarning chegaraviy darajasini aks ettiradi.

Ilmiy muassasalarning innovation imkoniyatlari alohida olingan hududdagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, universitet va institutlar, o‘rta maxsus va

kasb-hunar kollejaridagi yangilik hamda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlanish darajasini aks ettiradi.



1-rasm. Kichik biznesda innovasion imkoniyatlari tasnifi

Tarmoq imkoniyatlari ixtisoslashgan firmalar o'rtasidagi hamkorlik natijalarida yangiliklarni joriy etish omillarini o'z ichiga oladi. Korxonaning innovasion imkoniyati jamoadagi ichki tizimini rivojlantirish, yangilanish uchun mavjud shart-sharoitlar chegarasini ifodalaydi. Ishlab chiqarishning innovasion imkoniyati korxonadagi texnik-texnologik jarayonlarni takomillashuv va o'zgartirishlarga muvofiqligi bilan tavsiflanadi.

Rossiyalik iqtisodchi olim A.S.Prosviryakovning ilmiy qarashlarida mintaqalarda ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarga qulay investision va innovasion muhitni shakllantirish tamoyillari, ayrim tarmoqlarda bu masalaning pasayish tendensiyalari bayon etilgan.

Rus olimi A.B.Gorodilovda esa sanoatda ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarishni samarali boshqarish, qarorlar qabul qilishda andozaviy va zamonaviy usul va shakllardan unumli foydalanish masalalari, ayniqsa, axborot-

kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishning adekvat modellari taklif etilgan. Olimlar N.V.Ketko va R.R.Zarafutdinov tomonidan kichik biznes sub'yektlarining hozirgi paytdagi Rossiya Federasiyasi rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgani holda ushbu masaladagi bir qator salbiy jihatlar mavjudligini ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining asosan xorijiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berishga ixtisoslashib, sanoat ishlab chiqarishini innovasion rivojlantirishdagi hisssasi past ekanligi talqin etilgan.

Jahon sivilizasiyalari va tarixiy davrlar almashinuvi ilmiy inqiloblardan, V.I.Vernadskiyning ta'biricha, ilmiy ijodning portlashidan boshlanadi: "Ilmiy fikrlashga ma'lum bir harakatlanish tezligi xos bo'lib, u vaqt bo'yicha qonuniy o'zgaradi, bunda uning to'xtab qolish va tezlashish davrlari almashinuvi kuzatiladi. Har yuz yilda takrorlanuvchi ilmiy ijod portlashlari bir yoki bir necha avlodda, bitta yoki bir nechta mamlakatda biosferani o'zgartiruvchi kuchlarni yaratuvchi boy iqtidorli shaxs jamlanuvchi davrning har yuz yilda takrorlanishiga ishora qiladi". Bunday portlashlar markazi vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi. Eramizdan avvalgi asrlarda u Qadimgi Gresiyada, keyinchalik birinchi ming yillikda Xitoy, so'ngra arab mamlakatlarida, uyg'onish davrida esa Italiyada, so'ngra Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyada rivojlangan. XX asrning boshlarida yangicha g'oya va fikrlarni bilan jamiyatni boyitish Rossiya va AQSHda kuzatilgan. O'zbekistonda innovasion tadbirkorlikni shakllanishi va rivojlanishi tadrijiy yo'l bilan davlat mustaqilligiga erishilgandan so'nggi davrga to'g'ri keladi.

XX asrning 90-yillari fan sohasida radikal antiinnovasiyalar to'liqini va ushbu sohaning chuqur inqirozlarga uchrashi bilan tavsiflanadi. Bunday inqirozlarga iqtisodiyot rivojlanishining tartibsiz, o'zibularchilikka yo'l qo'yib berilgani, amaliy fan va harbiy-texnika tadqiqotlari, tajriba-konstruktorlik ishlari va innovasiyalarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan voz kechilishi sabab bo'ldi.

Fan-texnika tizimi rivojlanishidagi uzilish sobiq Ittifoq davrida yaqqol ko'zga tashlandi. Agar 1985 yildan 1990 yilgacha Rossiya tadqiqot va loyihalarga YAIMga nisbatan 83 foizga o'sgan bo'lsa, 1992 yilga kelib bu ko'rsatkich 3,4 baravar qisqardi, YAIMdagi ulush esa 2 foizdan 0,74 foizgacha, ya'ni 2,7 marta kamaydi.

Fan taraqqiyotidagi inqirozlar, birinchidan, davlat va jamiyatning fanga bo'lgan munosabatining o'zgarishi, fanning rivojlanishiga korporasiyalar va byudjet ajratmalarining bir necha baravar qisqarishi bilan ifodalanadi. Tadqiqotchilar soni 1989 yildagi 1119 ming kishidan 1998 yilda 117 ming kishigacha - 2,7 baravar; fandagi asosiy vositalar qiymati 2000 yilda 1990 yilga nisbatan 3,6 baravar, jumladan, mashina va asbob-uskunalar bo'yicha 7,6 baravar qisqardi va jamiyatda ijodiy ilmiy faoliyatning nufuzi tushib ketdi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, Rossiyada olimlar va muhandislarning aholi sonidagi ulushi bo'yicha daromad darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlardan ustun kelib faqat AQSHdan keyingi o'rinda tursa (mos ravishda har 1 mln. kishiga 3397 va 4163 kishi), fanga ajratilgan xarajatlar bo'yicha mamlakat AQSHdan 36 baravar, Yaponiyadan 15 baravar, Hindistondan 2 baravarva Xitoydan 4 baravar ortda qolmoqda. 2012 yilda yaratilgan ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining atigi oltidan biri yangilik sifatida baholangan, foydalanilgan ilg'or texnologiyalarning qariyb 5 foizi patentga ega bo'lib, texnologiyalar importi qiymati ularning eksport qiymatidan 2,1 baravar katta bo'ldi.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida, bozor islohotlari birlamchi zarbalaridan o'ziga kelgach, mamlakat fan sohasi yangi qoidalar asosida qayta tiklanishva yangilanishborasida uzoq va murakkab yo'lga qadam qo'ydi. Bu ayniqsa, yangi ilmiy maktablarni shakllantirish va rivojlantirish uchun katta mablag' kiritish talab qilinmaydigan ijtimoiy fanlar sohasida yaqqol namoyon bo'ldi. O'tgan asrning 20-yillari klassik tadqiqotchilar N.Kondratev, P.Sorokin, A.Bogdanov, N.Berdyayevva kabilar merosini o'zlashtirish va rivojlantirish asosida postindustrial qoidalar— davriy, dinamika va sosiogenetika, sinergetika,

xo‘jalik falsafasi hamida makroiqtisodiyotga yo‘naltirilgan zamonaviy ilmiy maktablar shakllantirildi. Yangilik darajasi bo‘yicha G.Mensh texnologik innovasiyalarni bazis, yaxshilovchi va soxta innovasiyalarga ajratadi.

G.Palterovich ham texnologik yangiliklarni boshqa mamlakatlarda kiritilgan yangiliklarni takrorlovchi imitasiya (o‘xshatish) va dunyoda ilk bora amalga oshirilayotgan innovasiyalarga ajratishni taklif qiladi. Bu jihatdan pioner va imitasion innovasiyalar haqida fikr yuritilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Innovation o‘sinh strategiyasi va innovation rivojlanishning uzoq muddatli bashoratlari asosida N.D.Kondratev tomonidan ishlab chiqilgan hamda Rossiya Federesiyasi va xorijiy olimlari tomonidan jamiyatdagi chuqur o‘zgarishlarning yangi bosqichiga moslashtirilgan oldindan ko‘ra bilish nazariyasi va istiqbolli rejalashtirish metodologiyasi yotadi. Bu yerda biz ushbu nazariya va metodologiyadan O‘zbekiston Respublikasi uchun, uning tez rivojlanib borayotgan kichik biznes sohasi uchun o‘sinh strategiyasini ishlab chiqishda foydalanamiz va sohaning innovation rivojlanish parametrlarini ekonometrik modellar yordamida aniqlaymiz.

G‘arb mamlakatlarda chop etilgan ilmiy manbalarida tadbirkorlik tizimiga fan-texnika va ilmiy yondoshuvlarni inkor qiluvchi oqimlar mavjudligini ta’kidlash joiz. Bu sohadagi innovasiyalar va matematik vositalar yordamida iqtisodiy qonuniyatlarni ochib berishga qarshi bo‘lgan fikrlarni “sub’yektivizm” maktabi vakili Ye.Fon Bem-Baverk, “avstriya maktabi” namoyondasi L.Fon Mizes va boshqalar ham o‘z asarlarida bayon etib o‘tishgan. Istiqbollashtirishning matematik vositalarini inkor qilgan holda ular makroiqtisodiy o‘zgarishlarni oldindan aniqlashda Elliot to‘lqinlari nazariyasi⁶dan foydalanishni tavsiya qilishadi: ular iqtisodiyotga davlat aralashuvni inkor qilib, makroiqtisodiy hodisa va jarayonlar, ayniqsa, inqiroz,

⁶Ralf Nelson Elliot (1871-1948) – iqtisodiy sikllar davrida ishlab chiqarish, bandlik, ishsizlikning yo‘nalishi va o‘zgarishi o‘ziga xos to‘lqinlar shaklida takrorlanib turishini AQSH fond bozorlaridagi narxlarning tebranishi va o‘zgarishi bilan bog‘lashga harakat qilgan nazariy qarashlarning asoschisi.

ommaviyishsizlik va inflyasiyani “mardonavor” kutib olish, bozor o‘z-o‘zini avtomatik tartibga solib borishini bashorat qilishadi.

Rossiyalik XX asrning ko‘zga ko‘ringan iqtisodchisi P.Sorokin ham innovasiyalar nazariyasining asoschisi hisoblanuvchi N.D.Kondratevning oldindan ko‘ra bilish va istiqbolli rejalashtirish metodologiyasini qo‘llab-quvatlaydi.

Mazkur nazariyaning asosiy tamoyillarini kichik biznesga taaluqli ravishda qisqa bayon etamiz.

1. Jamiyat va tabiat rivojlanishi qonuniyatlarini yaxlit holda, tizimlar rang-barangligida anglash oldindan ko‘ra bilish uchun zarur asos va zamin hisoblanadi. Istalgan fanning asosiy funksiyasi shundan iborat.

2. Uzoq muddatli rejalashtirishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar dinamikasidagi sikllar va inqirozlarni ularni tabiiy tizimlar bilan aloqada oldindan ko‘ra bilish hisoblanadi. Kichik biznesdagi innovasiyalar uchun qisqa, yirik kompaniyalar va tarmoqlar uchun uzun sikllar xos.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni uzoq muddatli bashorat qilish sivilizatsiyali xarakterga ega bo‘lib, jahon va lokal sivilizatsiyalar aloqasi va dinamikasi qonuniyatlarini hisobga oladi.

4. Oldindan ko‘ra bilishning maqsad va natijalari muayyan hodisalarni aytib berish emas, balki davriy o‘zgarishlar va rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko‘ra bilish, kelajakda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni innovasion asoslarda hal qilish yo‘llarini tadqiq etish hisoblanadi.

5. Uzoq muddatli bashorat qilish va strategik rejalashtirish o‘zaro uzviy va chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyot va yirik xo‘jalik tizimlarining rivojlanishini boshqarishda yaxlit bir butunlikni tashkil qiladi. Bashorat rejadan oldin keladi, kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini baholash, bazaviy va ahvolni yaxshilovchi innovasiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan strategik ustuvorliklarni tanlash hamda buning oqibatlarini baholashga yordam beradi: “Reja istiqbollari nafaqat direktiv, balki oldindan ko‘ra bilish hamdir.

Aniq aytish mumkinki: reja bu – faqatgina oldindan ko‘ra bilishgina emas: u birvaqtning o‘zida hatti-harakatlar dasturidir; biroq oldindan ko‘ra bilishsiz reja bu hech narsa emas”.

6.Uzoq muddatli bashorat qilish va strategik rejalashtirish metodologiyasi tor doiradagi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar (indikatorlar), istiqbolli balanslarga tayanishi lozim. Chunki ular xalq xo‘jaligidagi proporsiyalarning muvozanatli o‘zgarishini ta‘minlash, muayyan ichki va tashqi omillarni e‘tiborga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy, innovasion-texnologik va ekologik siyosatning istiqbolli maqsadlariga erishishga imkon beradi.

7.Bashorat qilish va strategik rejalashtirishni tashkil etish turli darajadagi reja va bashoratlarning uyg‘unlashuvi, ularni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda mahoratning yuqori bo‘lishi, davlat tomonidan tartibga solishning bozor vakillari mustaqilligi va tashabbuslari, ularning innovasion faolligi bilan uyg‘unlashuvini ta‘minlay olishi zarur.

Mikrodarajada innovasiyalarni boshqarish jarayonini tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- innovasion boshqarish maqsadini tashkilot faoliyati maqsadlariga moslashtirish (masalan, bozorning ma‘lum segmentini egallash uchun yangi sifat ko‘rsatishiga ega bo‘lgan mahsulotni ishlab chiqarish);

- raqobatda ustunlik yoki kamchiliklarni aniqlash (masalan, tajriba-konstruktorlik ishlari bilan band bo‘lgan xodimlarning yuqori malakasi, lekin zaif investisiya bazasiga egaligi);


- innovasion boshqarish usullarini aniqlash (analitik, eksperimental-tajriba usuli, bashorat qilish, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, ma‘muriy va boshqa usullar);

- innovasion boshqarish mexanizmini yaratish (2-rasm).

Innovasion boshqarish mexanizmi elementlarini ko‘rib chiqamiz.

1. Tashkilotda innovasiyani bashorat qilish (prognozlash). Texnikani kelajakda rivojlantirishning ehtimoli bo‘lgan, kelajagi bor bo‘lgan yo‘lini topish.

Innovasiyani bashorat qilish kelajakda texnika va texnologiyani qo'llashda, mahsulotlarni ishlab chiqarishda qanday o'zgarishlar bo'lish ehtimolini va raqobatga qanday ta'sir o'tkazishini bilish zarur.



2-rasm. Innovation menejment mexanizmi

Innovasiyani bashorat qilish uch bosqichda amalga oshirishni ifodalaydi:

- 1) bashorat ob'yektini aniqlash;
- 2) bashorat qilish usullarini tanlash (masalan: eksrtapolyasiya usuli, ekspert baholash usuli, modellashtirish metodlari va boshqalar)⁷.

¹ Ekstrapolyasiya usuli fan va texnikada bashoratdan avvalgi davrda vujudga kelgan qonuniyatlarni kelajakda tarqatishni ifodalaydi.

² Ekspert baholash usuli kelajakda shu sohada ishlaydigan yuqori malakali mutaxassislardan olingan so'rovnoma asosidagi statistika ma'lumotlarini saralashni ifodalaydi.

³ Modellashtirish usuli mantiqiy, axborot matemateka-statistika modellarini o'z ichiga oladi.

3) bashoratni yoki istiqbolni ishlab chiqish va uni taxminiy baholash.

2. Holatni tahlil etish. Tashkilot faoliyatiga bevosita va bilvosita tashqi muhit omillari ta'siri va tashkilot ichidagi ishlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash. So'ngra har xil darajadagi menejerlar to'plangan axborotlarni turlarga ajratadilar va tahlil qiladilar. Innovasiya ko'rsatgichlarini nazorat qilishning amaldagi mavjud rejaga (prognoz asosidagi) solishtiriladi, natijada tezda hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

3. Innovasiyaga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash va to'g'ri ifodalash chora-tadbirlari majmuini ishlab chiqish, innovasiyaga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish tashkilotning samarali amal qilish imkoniyatini beradi.

4. Innovation muqobilni tanlash mezonini aniqlash. Har xil innovasiyalarni solishtirish bilan ularning eng yaxshi muqobili tanlab olinadi (masalan, innovasiya xarajatlari, innovasiyaning hayot davri, undan olinadigan samara).

5. Innovation muqobilni ishlab chiqish – bu innovasiyaning har xil variantlari va modifikasiyalarini ishlab chiqish hamda tatbiq etishning yo'llari bo'lib, ular ichidan tashkilot xususiyatini hisobga olgan holda (maqsadi va tashqi muhitga nisbatan holati) maqsadga muvofiq bo'lgani – menejer tanlab olish mumkinligini ifodalaydi

6. Innovation muqobillarning afzalligi va kamchiliklarini taqqoslash asosida tahlil o'tkazish. Taqqoslash uchun standartlar to'plami va baholash mezonini bo'lishi kerak. Ko'p hollarda tanlash kelishilgan variant natijasi bo'lib, bir nechta sifatli muqobillar yig'indisidan iborat bo'ladi. Hozirgi tezkor muhitda faoliyat yuritayotgan tashkilotning xavf darajasini hisobga olish kerak. Masalan, eng qulay variant emas, balki innovasiyaning yuqori muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritishi mumkinligi hisobga olinib muqobili tanlanadi.

8. Boshqarish qarorlarini ishlab chiqish va kelishish. Innovasiya bilan bog'liq bo'lgan boshqarish qarorlarini ishlab chiqish innovasiya bo'linmalarining tashkilotning boshqa bo'limlari va boshqaruvchi xodimlar bilan hamkorligiga qaratiladi. Innovation boshqarish xususiyati – uning

malakali kadrlar yordamida ishlab chiqilishi, qarorlarni qabul qilish va rejani tatbiq etishni tasdiqlash esa menejerlar tomonidan amalga oshirilishidir. Shu munosabat bilan innovasiyani amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ygan tashkilotlarda boshqarish qarorlari qabul qiladigan guruhlar tuziladi. U jamoada boshqarish turli bo‘g‘inlari nomuvofiqligini aniqlash va ularni tez va sifatli bartaraf etish imkonini beradi.

9. Boshqarish innovasiya qarorlarini tadbiq etishni boshqarish ish va resurslar majmualari, ijrochilar va ish muddatini aniqlashdan boshlanadi. So‘ngra boshqarish innovasiya qarorini tadbiq etish dasturi ishlab chiqilib, uni bo‘linmalar “maqsadlar daraxti”ga muvofiq bajarishlari zarur bo‘ladi.

10. Natijalarni nazorat qilish va baholash. Innovasiya dasturini amalga oshirish jarayonida boshqaruvning barcha bosqichlaridagi menejerlar qarorlarning bajarilishini nazorat qiladilar. Zarur bo‘lganda boshqaruvchilar yoki malakali kadrlar yordamga keladilar, xato topilganda o‘zgartirishlar kiritiladi. Shunday qilib, innovation boshqarish mexanizmi elementlarining oxiridan boshigacha teskari bog‘liqlik vujudga keladi.

Innovasiya – boshqarishning maxsus ob‘yekt bo‘lib, salmoqli investisiya, malakali ilmiy–texnik xodimlar va keng ko‘lamdagi marketing tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi. Shunday qilib, innovation boshqarish uchun bo‘limlar o‘rtasida boshqarish tarkibida to‘g‘ri va aksincha o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydigan tizimli yondashuv kerak bo‘ladi.

Avstriya olimi Yozef Aloiz Shumpeter 1912 yilda o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi” nazariyasi nomli asarida yangilikni ijod qiluvchi (novator) va yangilik kiritish (innovasiya) tushunchalarini taklif etdi. Uning fikriga ko‘ra innovasiya deganda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish kuchlarining yangicha uyg‘unligidan tijoriy vazifalarni bajarish uchun foydalanish tushuniladi va u iqtisodiy tizimni rivojlantirish manbai deb hisoblanadi.

Shu kunda ham Shumpeter tomonidan taklif etilgan innovasiyaning tasnifi deyarli eskirmadi: yangi materiallarni qo‘llash, yangi jarayonlarni tatbiq etish,

yangi bozorlarni topish, yangicha ishlab chiqarishni tashkil etish turlarini qo'llash va hokazolar. U yangilik kiritishni asosiy (tayanch) va ikkilamchi turlarga ajratib – hozirgi davrdagi innovasiya konsepsiyasiga asos soldi. Bularning barchasi ko'pgina innovation menejment muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning Shumpeterning innovation menejmentni, kengroq ma'noda esa innovasiya nazariyasi asoschisi ekanligini tan olishlariga sabab bo'ldi.

1939 yilda Y.Shumpeter "Ishchanlik davri" nomli ishidagi innovasiya nazariyasini N.A.Kondratyevning "uzun to'liqlik" konsepsiyasi bilan bog'lab, davriy rivojlanishning haqiqiy mohiyatini asoslab berdi va yangilik kiritish jarayoni uning ichki mexanizmi ekanligini asoslab berdi.

1939 yilda Shumpeter o'zining "Ishbilarmonlik davri" nomli ishida innovasiya nazariyasini N.A. Kondratyevning "uzun to'liqlik" nazariyasiga bog'lagan holda davriy rivojlanishning asosiy ichki (endogen) mexanizmi bo'lgan innovation jarayon nazariyasining asl mohiyatini ta'riflab berdi. Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy-iqtisodiy sur'atlarni tushunishga yuqoridagidek yondashish shu kunda ham fanda yangicha bir necha xil variantlarda: texnika-iqtisodiy paradigmalarining (TIP), texnologiya ukladlari va boshqalarning almashuvini faraz qilish nazariyalarida amal qilib kelmoqda.

Paradigma grekcha so'zdan olingan bo'lib – misol, namuna degan ma'noni anglatadi. Biz tahlil etayotgan masalada bu tushunchani quyidagicha ta'riflash mumkin: "ma'lum darajada birliklarni bog'lovchi munosabatlar tizimi yoki shunday munosabatlar yig'indisi", aniqrog'i turg'unlik jarayonida texnologik innovatsiyalarni joriy etish bilan, yangi texnologik yo'nalishdagi rivojlanish asosida amalga oshadigan sanoat sohalari majmuidagi o'ziga mos keladigan muassasaviy tuzilmalar, infratuzilma, moliya tuzilmasi hamda ijtimoiy-siyosiy muhit, mehnat va kapital o'rtasida amalga oshadigan o'ziga xos bo'lgan munosabat.

Uzun to'liqlik rivojlanish davrining eng ko'p tarqalgan varianti yoki texnik iqtisodiy paradigmalar bevosita uzun to'liqlik jarayon bilan bog'langan (1-jadval).

1-jadval. Texnik-iqtisodiy paradigma davrlari

Texnik-iqtisodiy paradigmalar (uzun to‘lqinlar)	Yillar	Paradigmalar tavsifi
I	1770 – 1830	To‘qimachilik sanoati va unga kerak bo‘lgan mashinasozlik, to‘quv va yigirish stanoklari, ko‘mir qazib olish va temir yo‘llar uchun shart-sharoitlar
II	1830 – 1896	Temir yo‘l, ko‘mir va qora metallurgiya davri
III	1896 – 1940	Energetika, energetika va og‘ir mashinasozlik, elektr uzatish tarmoqlarini qurish davri
IV	1940 – 1990	Avtomobilsozlik, neftkimyo, sintetik tolalar ishlab chiqarish, yarim o‘tkazgichlar va mikroelektronika sanoati
V	1990	Yangi iqtisodiyot

N.D. Kondratyevning “uzun to‘lqinlar” nazariyasi kelajakda insoniyat jamiyatida texnologik jarayonlarning rolini shu nazariya asosida aniqlash va belgilash uchun iqtisodchilarga keng imkoniyatlarni yaratib bergan XX asrdagi eng ahamiyatli ilmiy faraz hisoblanadi. XX asrning oxirgi 10-20 yillarida innovasiya jarayonlarida iqtisodiy va boshqarish muammolari dolzarb masala bo‘lib qoldi. Innovasion jarayonlarning faraz etish tizimini yaratishga bo‘lgan yangi iqtisodiyot yoki iqtisodiy bilimlarga ehtiyoj, ayniqsa, 1990 yillarga kelib kuchaydi. Bunday holat shu davrlarda innovasion menejment sohasida sezilarli darajada tadqiqot ishlari va ilmiy nashrlarning faollashuviga olib keldi.

“Yangi iqtisodiyot” tushunchasi tor ma’noda uning axborot texnologiyalarining eng yuqori darajasi bilan teng ekanligini ifodalasa, uning keng ma’nosi kamida uch o‘lchovni o‘z ichiga oladi – axborotlar, moliya va innovasiya.

Ularning o‘zaro bir-biriga bog‘liq holda rivojlanishi quyidagi tavsiflarga ega bo‘lgan yangi iqtisodiy muhitning vujudga kelishiga olib keladi:

- aqliy bilimlar, korxonaning innovasion salohiyati, ilmiy-o‘quv majmui, innovasion jarayonning moliyaviy infratuzilmasiga asoslangan holda yangilikni tezda o‘zlashtirish va tatbiq etish;
- innovasion jarayonning tezlashuvi bilan bozorni rivojlantirish, yangiliklarning bir-biriga tutashib ketishi, bilimlar, texnologiya, ta’lim olishni baynalmilallashuvi, shu jumladan axborot tarmoqlari orqali bog‘lanish;

- axborot texnologiyalaridagi inqilobning transaksion xarajatlar (sotish bilan bog‘liq xarajatlar) va bozorning qutblarga ajralishiga ta’siri;

- nomoddiy aktivlarda innovasiya salmog‘ining oshib borishi, firma va korporasiyalarning kattalashuvi, innovasiya ishlanmalarining ilk bosqichda yiriklashuvi;

- jamg‘arish jarayoni va pirovard natijada innovasiya jarayonida faol rolni bajaradigan yangi moliyaviy tuzilmalar hisobiga transmilliy kapital bozorining vujudga kelishi;

- texnologiyalarni uzatishning “qo‘shilishi va bir-birini yutib yuborishi, tezlashuvchi va kengayuvchi jarayonli” transmilliy xarakteri;

- kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni venchur kapitali yordamida innovasion jarayonga kengaytirilgan holda jalb etish (xattoki baynalmilallashtiruv jarayoni darajasigacha);

- innovasiyaning korxona strategik resursiga aylanishi va uning xalqaro bozorda innovasiyaga yondashishi va mavqeini mustahkamlash dasturini ishlab chiqish ahamiyatining oshib borishi;

- katta miqdordagi axborotlardan foydalanish imkoniyatini yengillashtirish, innovasiyani tushunib yetish va uni tanlash birinchi navbatdagi muammo hisoblanadi.

1990 yillardagi jahon iqtisodiyotidagi inqiroz zamonaviy iqtisodiyot tarkibidagi moliya mexanizmlarining axborot texnologiyalari hamda innovasion faoliyatning chuqur va hal qiluvchi integrasiyasining, oxir-oqibatda yangi iqtisodiyot atamasini hayotga layoqatliligi haqidagi muammoni keltirib chiqardi.

Moliya bozorlari – chalkash holga tushib qoldi, axborot tarmoqlari bilan bog‘liq bo‘lgan kompaniyalarning kattalashuvi (oshirib ko‘rsatilgan va kamayib ketish ehtimoli bo‘lgan), davrdagi axborotlashuv barcha muammolarni hal qiladi deyish asossiz edi. Bunday sharoitda mavjud bo‘lgan tabiiy ravishda axborot texnologiyasi moliyaviy yangiliklarni o‘z ichiga olgan innovasiya barqarorroq ekanligini namoyon etadi. Insoniyatning xo‘jalik yuritishining oldingi davrlaridan

farqli ravishda hozirgi davrdagi iqtisodiy muhitdagi innovasiya komponenti u yoki bu ilmiy yangiliklarga yoki texnologiyadagi kashfiyotlarga borib taqalmaydi.

Innovasiya – tobora ko‘payib borayotgan innovasiya oqimini tezlashtiruvchi, o‘zgarib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi va tubdan yangi bo‘lgan talab ob‘yektlarini vujudga keltiruvchi, rivojlanib va ahamiyati oshib borayotgan bozor segmenti hisoblanadi. Bu segment o‘zining tadqiqot, moliya, konsalting va marketing infratuzilmasiga ega, yuqori darajada ijtimoiylashgan va muassasalariga ega tijoratlashuvnigina emas, balki davlatning raqobatbardoshligini xam ta‘minlaydi.

Hozirgi kunda bunday passiv va hisobli strategiya bilan faoliyat yuritish mumkin emas. Innovasiya raqobatida faol ishtirok etishni xohlamaydigan korporasiyalar osonlikcha iqtisodiy ilg‘orliklar safidan chiqib ketadilar. Lekin innovation faoliyatga faol tarzda investisiyalarni sarflash muvaffaqiyatga ega bo‘lish uchun yetarli emas.

Innovation menejmentning samarali tizimiga innovasiyaning shart-sharoitlarini va xususiyatlarini maqsadga muvofiq holda birlashtirish, u xoh ma‘lum korxona doirasida, xoh milliy innovasiya tizimida bo‘lsin, rivojlanishni boshqarishning muhim qismi bo‘lgan innovasiya iqtisodiyoti va uni boshqarish kabi iqtisodiy bilimlar sohasining shakllanish jarayonini (innovasiyani) jiddiy o‘rganish va uni chuqur tushunishni talab etadi.

Turli pog‘ona darajasidagi innovation tizimning innovasiyani rivojlantirishdan maqsadi (davlat darajasidan to kichik innovation korxonalar darajasidagi pog‘onalarda) uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni va yuqori darajada raqobatda ustunlikni ta‘minlash uchun innovasiya bazasini yaratishdan iborat. Raqobat nazariyasidan kelib chiqib, aynan fanning rivojlanishi va yangi texnologiyani joriy etish yuqori darajada raqobatda ustunlikni vujudga keltiradi.

Hozirgi davrdagi iqtisodiyotda innovation tizimning samarali faoliyati oxir-oqibatda takror ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi.

Takror ishlab chiqarish – mikro-, mezo- va makro- darajada asosiy va aylanma kapitallarning o‘rnini to‘latish bilan ishlab chiqarish hamda mahsulotni chetga chiqarish – sotishni to‘xtovsiz ravitida boshlashdan iborat.

Agar yangidan to‘xtovsiz ishlab chiqarish avvalgi ko‘lamda amalga oshirilsa, oddiy takror ishlab chiqarish deyiladi. Hozirgi davrda oddiy takror ishlab chiqarish kam uchraydigan hol, bunda investisiyalar majburiy holda amalga oshadi. Ko‘pgina hollarda oddiy takror ishlab chiqarish kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning bir qismi hisoblanadi.

Davlatning sof mahsuloti pirovard maqsad bo‘lgan aholi turmush darajasi va uning sifatini belgilaydigan ishlab chiqarish kuchlarini kengaytirish jarayoni, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda amalga oshadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan uch bosqichni o‘z ichiga oladi: yangilik kiritish, moliyaviy va real investisiya jarayonlari.

1. Innovation jarayon – ishlab chiqarishni kengaytirishni ta‘minlaydigan yangiliklarni ishlab chiqish. Intensiv takror ishlab chiqarish jarayonida intellektual asos yotadi. Texnologiya bilan ta‘minlash, korxonaning nomoddiy aktivlarini barpo etish bosqichlarining o‘zida ularning qiymati oshadi.

2. Jamg‘arish (pul yig‘ishga teng emas). Takror ishlab chiqarish uchun moliyaviy manbalarni yaratish. Takror ishlab chiqarishning muhim resursi uni moliyalashtirish uchun kerak bo‘lgan chora-tadbirlarning jamini o‘zida ifodalaydigan holat hisoblanadi. Makroiqtisodiy darajada takror ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi iste‘mol jamg‘arish nisbatini oshirish yo‘li, shaxsiy jamg‘armalarni ishlab chiqarishga sarflash (jamg‘arish, investisiya)ni rag‘batlantirish choralari bilan ta‘minlanadi. Jamg‘arishni innovasiyaga yo‘naltirish uni kapitallashtirishning zamonaviy moliyaviy mexanizmlari bo‘lgan: innovation marketing, venchur moliyalashtirish, ijtimoiy moliyaviy fondlar, innovation loyihalarni moliyalashtirishni davlat tomonidan rag‘batlantirish va h.k.lar asosida

amalga oshiriladi. Jamg'arishning mikroiqtisodiy qirralari kitobning unga taalluqli boblarida ko'rib chiqiladi.

3. Investisiya jarayoni – ishlab chiqarishning moddiy bazasini yangi haqiqiy aktivlarni vujudga keltirish yo'li bilan rivojlantirish. Takror ishlab chiqarish jarayonining kengaytirilgan xarakterga ega bo'lishida investisiyaning innovasiya yo'nalishiga ega bo'lishi asosiy va hal qiluvchi shart hisoblanadi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning uchta tashkil etuvchisi o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Innovation jarayon uchun jamg'arish zarur shart hisoblansa, investisiya uchun yetarli sharoit hisoblanadi.

Innovasiya mamlakatning ishlab chiqarish bazasi bo'lgan yangi fondlar va mehnat predmetlarida gavdalangan real investisiyalar ichki jamg'arishning asosiy manbai bo'lib, innovasiya jarayonining keyinchalik rivojlanishining muhim resursi hisoblanadi hamda takror ishlab chiqarishni kengaytirishni ta'minlaydi.

Takror ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi jamiyat a'zolari uchun kerak bo'lgan sof mahsulot hajmini oshirish, ya'ni ijtimoiy ehtiyojlar darajasini qondirish yoki yangi darajada mahsulot yaratish va unga bo'lgan talabni qondirish hisoblanadi. Mahsulot hajmining ko'payishi sababini taqsimlash sohasi bilan tushuntirish mumkin emas. Bunda kelajakda kishilar ehtiyojini qondirish darajasining oshib borishi nazarda tutiladi. XIX asrdagi iqtisodiy nazariyalar bu muammoni hal qila olmadi. Aynan shu masalada klassik siyosiy iqtisodiyot namoyondasi Rikardo yo'nalishi, keyinchalik esa Marksning qo'shimcha qiymat nazariyasi oydinlik kiritmadi. Endi xo'jalik hayotida sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladigan insonning intellektual faoliyatining moddiylashuvi haqida so'z yuritila boshlandi.

Ijtimoiy rivojlanishning eng muhim omili yangilik kiritish (innovasiya) tushunchasida ifodalanadi.

Innovation muammolarni o'zida aks ettiradigan adabiyotlarda semantika atamasiga e'tibor qaratiladi. U yangi xo'jalik natijasi (ya'ni ob'yekt)ni yoki shu xo'jalik natijasiga erishish jarayonini har qanday klassik yondashish kabi yangi

xulosalarni olishga va uni to'g'ri tushunishga yordam beradigan vosita sifatida ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Keyingi ifodalashda innovasiyaning tomonini, uning tavsifi va qo'llanilishini hisobga olgan holda yangilik, novasiya kabi atamalarni qo'llaymiz. Agar biz konkret yangilikni ishlab chiqish, joriy etish va undan samarali foydalanishni o'rganadigan bo'lsak, atamaning semantik nuqtai nazardan "yangilik kiritish", tor va keng ma'noda qo'llanadigan innovasiyada yangilik kiritish atamasini qo'llaymiz va bu atamada innovasiya davri, uning hayot davri yoki innovasiya jarayonidan olinadigan natija haqida gapiramiz. Va nihoyat, innovation loyihani ishlab chiqish va uni tatbiq etish haqida gapirganda, u ma'lum korxona darajasida bo'lsin (mikrodaraja) yoki tarmoq bozori darajasida bo'lsin (mezodaraja), yoki davlat xo'jalik darajasida bo'lsin (makrodaraja) va undan kengroq darajada bo'lsin (jahon global daraja) biz innovasiya, yangilik kiritish jarayoni atamasini qo'llaymiz. Olimlar, ixtirochilar, mutaxassislar, menejerlar, ishlanmalarni moliyalashtirish, tatbiq etish, moslashtirish, yangiliklarni tijoratlashtirishni amalga oshiruvchi tadbirkorlar haqida gapirganda innovasiya faoliyatini nazarda tutamiz.

Innovasiya – yaxlit maqsadli, yangi amaliy natijalarga qisqa muddatda yuqori salohiyatga erishish ehtimolligi jarayoni hisoblanadi.

Innovasiyaning ikki tomoni tahlil etilganda (natija va jarayon sifatida), bizningcha, quyidagi ta'riflardan foydalansa yetarli bo'ladi. Yangilik kiritishning natijasi samarali yangilikni ifodalaydi va u iqtisodiy va ijtimoiy samara ko'rsatkichlari bilan baholanadi, ya'ni bu faoliyat turi yoki moddiy ob'yekt bo'lib, avval ishlatilmagan «qabul qilingan va undan foydalaniladigan tashkiliy tizim» bo'lib, xo'jalik hayoti elementlarining kombinasiyasi hisoblanadi.

Innovasiyaning mumkin bo'lgan yangilik darajasi ta'rifining keng ma'nosiga e'tiborni qaratamiz. Bu nuqtai nazar e'tirozsiz yoki nuqsonsiz bo'lmasa-da, hozirgi bizning sharoitimizda yagona mumkin bo'lgan to'g'ri yondashuvdir.

Innovation jarayonni o'rganishning asosiy analitik vositasi yangilik kiritishning hayot davri hisoblanadi.

Texnologiya asosida, falsafiy aql yordamida, inson hayotini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan, lekin yillar davomida chang ostida qolib ketgan yangiliklar bir vaqt kelib bizning avlodlarimizga «jannatni rohatni berishi mumkin» degan Shumpeterning ta'rifidan kelib chiqib: Innovasiya – “intellektual faoliyatni va uning mahsulotini tijoratlashtirish va ijtimoyilashtirish jarayoni” deb ta'riflash mumkin.

Shunday qilib, innovasiya – maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni amaliy natijaga tezda erishish salohiyati yuqori ijtimoiy-iqtisodiy naflilikka erishish ehtimoli.

Innovation faoliyat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda innovasiya menejmenti fanini chuqurroq bilish uchun uning kategoriyalarini o'rganish lozim. Nazariy tahlil asosi innovation menejment konsepsiyasi hisoblanadi. Konsepsiya har qanday fanning ilmiy asosi bo'lib, mavjud hodisa rivojlanishning markaziy nuqtai nazarini aniqlab beradi.

Innovasiyaning nazariy asosi innovation menejment konsepsiyasi hisoblanadi. Konsepsiya har qanday fanning asosi bo'lib, o'rganilayotgan voqeani rivojlantirishning markaziy nuqtai nazarini ifodalaydi.

Innovation menejment nazariyasining har xil konsepsiyasi 2-jadvalda keltirilgan.

Innovation faoliyatning maqsadi, xarakteri va mazmuni innovasiya menejmentining xususiyatlarini va an'anaviy turlariga nisbatan farqini ifodalaydi.

Innovation menejmentning maqsadi, korxonaning vazifasi, falsafasi an'analari tashkilotning yutug'i bilan bog'liq. Korxona tashqi muhit va ichki ehtiyojlar ta'sirini o'zida ifodalaydigan maqsadlar tizimiga ega.

Korxonaning ichki ehtiyojlariga qarab innovation faoliyatning maqsadi barcha ishlab chiqarish tizimlarini yangilash, ilmiy, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyat asosida korxonaning raqobatda ustunligini ta'minlash bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Ijtimoiy maqsadlar ishchilarning ish

xaqini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy himoyalashga yo'naltiriladi.

2-jadval. Innovasion menejment konsepsiyalari

Asosiy konsepsiyalar	Konsepsiyani tatbiq etish va uning natijalari
Klassik maktab	
Mehnatni taqsimlash tamoyillari	Intizom
Maqsad va boshqarish birligi	Tartib
Hokimiyat va mas'uliyat	Adolat va mukofotlash
Markazlashuv va nomarkazlashuv nisbatlari	Samaradorlik
Menejmentning vertikal zanjiri	Kompaniyaning asosiy maqsadiga bo'ysunish
Axloqiy maktab	
E'tibor markazida inson resursi	Ishchilar salohiyatidan imkon qadar samarali foydalanish
Shaxsiy munosabatlar xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkilotning vujudga kelishi	Mehnat unumdorligini oshirish
Xodimlar xulqini ehtiyojlar, manfaatlar va qadriyatlar asosida boshqarish	Ishchilarning qoniqishini oshirish
Xodimlar mehnatini asoslash (motivasiya)	Mukofotlash va rag'batlantirishning egiluvchan tizimi
Ilmiy maktab	
Menejment faoliyati va uning vazifalarini ilmiy tahlil qilish	Maqsadga muvofiq holda amal qilish uchun sharoit yaratish
Kadrlarni tanlash, o'qitish va ularni maqsadga muvofiq keladigan holda joylashtirish	Mehnat unumdorligini oshirish
Rejalashtirish va bashorat qilishning ahamiyati	Ishlab chiqarish samaradorligi va barqarorligini ta'minlash
Resurslar bilan ta'minlashning ahamiyati	Xo'jalik faoliyati uzluksizligini ta'minlash
Mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish	Adolatli mukofotlash va mehnat unumdorligini oshirish

Innovasiya maqsadi yangilikni ishlab chiqish, patentlash va lisenziyalash, nou-xaular, yangi sanoat namunalari, tovar belgilari va hokazolarni xarid qilishdan iborat.


Korxonaning yangiliklarni tijoratlashtirishdagi maqsadi mustahkam o'ringa ega bo'lish uchun faol marketing tadbirlarini amalga oshirish, keyinchalik bozor segmentini kengaytirish va yangi bozorlarni egallashdir.

Innovasion menejmentning ustuvor maqsadlari – innovasion faoliyatni faollashtirish natijasida tashkilotni rivojlantirish, yangi tovarlar va yangi texnologiyalarni bozorga kiritish, faol rivojlanish uchun keyinchalik ishlab

chiqarishning ixtisoslashuvi va diversifikasiyalashuvi hamda yangi bozorlarni o'zlashtirishni amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlardan foydalanish hisoblanadi.

Tashkilotning taktik maqsadi ishlanmalarni ishlab chiqish jarayonini tezlashtirish, yangiliklarni joriy etish va o'zlashtirish, korxonada investisiyalarni moliyalashtirishni tashkil etish, xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish, rag'batlantirish va mukofotlash, yangiliklarning bazasi bo'lgan ITTKI, uning usullari va boshqarish uslublarini takomillashtirish hisoblanadi.

Tashqi ta'sir natijasidagi korxonaning strategik maqsadlar tizimi 3 -rasmda ifodalangan.



3- rasm. Innovasion menejmentda korxonaning tashqi maqsadlari

Innovasion menejmentni turlarga ajratish quyidagi asosiy mezonlar asosida amalga oshadi:

- darajasiga qarab (strategik va taktik);
- muhit turiga qarab (ichki, tashqi);

- mazmuniga qarab (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, texnik, tashkiliy va hokazo);
- ustuvorligi (ustuvor, doimiy, an'anaviy, bir martali);
- amal qilish davriga qarab (uzoq muddatli, o'rta muddatli, qisqa muddatli);
- amal qilish tarkibiga qarab (ta'lim, ishlab chiqarish, ITTKI, xodim, moliya, marketing, menejment);
- tashkilotning hayot davriga qarab (vujudga kelishi, o'sishi, yetukligi, hayot davrining pasayishi va tugashi).

Katta tashkilotlarda maqsadlar daraxtining mavjudligini ko'rish mumkin. Pog'onaviy maqsadlar mavjud bo'lib, ya'ni past pog'onadagi bo'g'inlarning maqsadi yuqori pog'onadagi bo'g'inlar maqsadiga mos kelishi kerak. Innovation menejmentning g'oyasi ta'sirida boshqaruvning barcha vositalarining ta'siri va innovasiya qarorlarini qabul qilish muolajalari ketma-ketlikda joylashadi. Innovation menejmentning asosiy vazifalarini amalga oshirishda o'ziga xos bo'lgan o'zaro bog'liqlik va mantiqiy ketma-ketlik paydo bo'ladi. Shunday qilib, menejmentning prosessual va ijtimoiy-psixologik kommunikasiya, motivasiya, vakillik huquqlari kabi vazifalarining ahamiyati keskin oshadi. Innovation jarayonni tashkil etish usullaridan biri – o'zaro shaxsiy munosabatlar qonuniyatiga, guruh dinamikasiga va hokazolarga asoslangan norasmiy turlarning salmog'i yuqori.

Nazorat qilish turlari o'rtasidagi nisbat o'zgarib turadi. Ular o'z-o'zini nazorat qilish, innovasiyalarni strategik nazorat qilish hamda moliyaviy-iqtisodiy nazorat qilishga mo'ljallangan. Innovation jarayonlarni nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan kommunikasiyalar asosiy ahamiyatga ega bo'la boradi. Unda prosessual holat va axborotlarni ayriboshlash jarayonini to'xtovsiz amalga oshirish afzal bo'lib qoladi. Ayniqsa, xodimlarni innovation boshqarishda menejment vazifasi va usullari o'zgaradi. Yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etish, jarayonlarni murakkablashtirish, yangi texnologiyalarning vujudga kelishi xodimdan yangilikka mos keladigan malaka, maxsus kasbiy bilim va uddaburonlikni talab etadi.

Innovasiya tizimida ishchilarning umumiy bilim darajasi oshib boradi. Xodimlarning mas’uliyatli bo‘lishi va mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishi talab etiladi.

Vazifalarning xodimlar zimmasiga yuklatilishi yuqori pog‘onadagilar ishlarining kamayishi bilan xodimlar sonining o‘shishiga olib keladi. Har qanday tushunchaning mohiyati qirralarining ma’lum doirada belgilanishi korxonaning maqsadi, tuzilishi va keyinchalik olib boriladigan tadqiqotlar hajmini ifodalashda boshlang‘ich davr hisoblanadi. Shuning uchun, “innovasiya”ning bir qator talablariga javob beradigan tushunchasini tahlil etishga e’tibor qaratishimiz lozim.

Birinchidan, “yangilik” va “innovasiya” tushunchalari farqlanishi lozim.

Yangilik – qaysidir bir sohada uning samaradorligini oshirish maqsadida fundamental, amaliy tadqiqotlar, ishlanma va tajriba ishlarining shakllangan natijasidir. Yangilik quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin: kashfiyotlar; ixtirolar; patentlar; tovar belgilari; rasionalizatorlik takliflari; yangi yoki takomillashgan mahsulot, texnologiya, tashkiliy, ishlab chiqarish, yoki boshqa strukturalar boshqaruv yoki ishlab chiqarish jarayoni hujjatlari; nou-xau; tushunchalar; ilmiy yondashish yoki tamoyillar; hujjat (standartlar, tavsiyalar, usullar, instruksiyalar va h.k.lar); marketing tadqiqotlari natijalari va hokazolar sifatida ko‘riladi. Yangilik ishlanmalariga investisiya sarflash – yarim ish bajarildi deganidir. Asosiysi yangilikni tatbiq etish, yangilikni innovasiya shakliga aylantirish, ya’ni innovasiya faoliyatini tugatish va ijobiy natijaga erishish, so‘ngra innovasiyani tarqatish. Yangilikni ishlab chiqish uchun marketing, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari tadqiqotlarini amalga oshirish, ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik jihatdan tayyorlash va natijalarni rasmiylashtirish zarur.

Innovasiya – yangilikni qo‘llash bilan pirovard maqsadda ob’yektni boshqarishni o‘zgartirish hamda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy va boshqa samara turlariga erishishni anglatadi.

Birinchidan, yangilik o‘z korxonasi uchun (korxonada yangilikni joriy etish yoki jamg‘arish uchun) va sotish uchun ishlab chiqiladi. Innovasiyaga “kirishda”

korxona tizim sifatida yangiliklarni sotuvchi hisoblanadi, bu yangiliklar tezda tatbiq etiladi, ya'ni innovasiya shakli "t" ga o'tadi yoki jamg'ariladi va o'zining tatbiq etilishini kutadi. Innovasiyadan "chiqishda" korxona yangi tovar sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, "innovasiya" atamasida uni ishlab chiqarish, tatbiq etish va tarqatishni tenglashtirib bo'lmaydi, chunki bu bosqichlar jarayon sifatida innovasiya faoliyatiga taalluqli bo'lib, uning natijasi yangilik yoki innovasiya bo'lishi mumkin. Uchinchidan, jamg'arishga, mahsulotlarni sotishga mo'ljallangan innovasiya shaklidagi yangiliklar xarid qilingan yoki korxonaning o'zida ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin.

Yangilikning innovasiyaga va yangi mahsulotga aylanishi sxemasi 4-rasmda ko'rsatilgan.

Hozirgi bosqichdagi texnologik inqilob davrida korxona innovasiyada realizasiya qilinadigan yangilik salmog'ini oshirishga harakat qiladi. Bunday holat korxonaga shu sohada yagona xukmronlik qilish va raqobatchilarga hamda iste'molchilarga o'z siyosatini o'tkazish imkoniyatini beradi. Jamiyatning farovonligi ishlab chiqarish omillari, innovasiya miqdorlari bilan emas, balki pirovardida nisbiy natija beradigan innovation faoliyatning samaradorligiga bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining quyidagi tuzilish manbalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ishlab chiqarish omillari asosida rivojlanish;
- investisiya asosida rivojlanish;
- innovation faoliyat asosida rivojlanish;
- farovonlik asosida rivojlanish;
- ta'lim.

Har bir davlat bir vaqtning o'zida yuqoridagi omillarning barchasidan foydalanishi mumkin. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va samaradorligi manbalar tuzilishiga qarab aniqlanadi.

Rivojlantirishga investisiyalarni yo'naltirish mamlakatdagi ayrim tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishga, kapital mablag'larni sarflashni emas, balki oddiy takror ishlab chiqarishni amalga oshirishni ifodalaydi. Xalqaro kreditlarga mo'ljallangan mamlakat iqtisodiy siyosatining kelajagi yo'q, chunki bu kreditlarni kelajakda yuqori foizlarda qaytarish kerak.

1.2. Hududlar iqtisodiyotda tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillarning nazariy asoslari


O'zbekistonda tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida tanlanishi quyidagilar bilan izohlanadi:

- tashkil qilish va xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun katta xarajat va kapital qo'yilmalar talab etmaydi;
- milliy iqtisodiyotdagi ma'lum bir bo'shliqlarni to'ldiradi, uni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlaydi;
- aholi ish bilan bandligi va daromadining o'sishini ta'minlaydi;
- ichki bozorni zarur iste'mol tovar va xizmatlar bilan to'ldirishida asosiy yo'llaridan biri bo'lib xizmat kiladi;
- mintaqa bozorlaridagi talab va savdoning o'zgarishlariga tez moslashadi;
- ishlab chiqarishni tez va oson modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish, ularning nomenklaturasini muntazam yangilab borish va raqobatdoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Shularni hisobga olib, mamlakatimizda, birinchi navbatda, milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik muhitini takomillashtirishda huquqiy asosini mustahkamlashga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining huquqiy normalari va tamoyillari asosida kabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida", "Mulkchilik

to'g'risida", "Xususiy tadbirkorlik kafolatlari va erkinliklari to'g'risida"⁸gi qonunlar qisqa muddatda davlat mulki bo'lgan obyektlarni xususiy mulkka aylantirish va kichik korxonalar tashkil etish imkonini yaratdi.

Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar asosan quyidagi to'rtta omil: xuquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro bog'likligi natijasida amalga oshiriladi. Chunki, bunday muhit kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga amalga oshirayotgan ishlarining natijalari qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilishiga keng imkoniyat tug'diradi (4-rasm).



4-rasm. Tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar⁹

⁸ www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi elektron qonun hujjatlari to'plami.

⁹ Umurzakov U.P., Toshmatov A.J. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.:“Sano-standart”, 2014. -36b.

Qishloq xo‘jaligi, savdo, xizmat turlarining barchasi va boshqa ko‘plab tarmoqlar deyarli to‘liq xususiy mulk sohasiga o‘tkazildi. Keyinchalik esa “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi va shu kabi boshqa qonunlarning kabul qilinishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning yangi bosqichiga o‘tishi uchun mustahkam huquqiy asosi vazifasini o‘tadi.


Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko‘p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko‘p bo‘lgan faoliyat turi mezonlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, tadbirkorlik faoliyati subyektlari quyidagi huquqlarga ega:

- qonun hujjatlariga muvofiq o‘ziga tegishli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;
- mustaqil ravishda ishlab chiqarish dasturini shakllantirish, mahsulot yetkazib beruvchilarni va o‘z mahsuloti (ishlari, xizmatlari)ning iste’molchilarini tanlash;
- tadbirkorlikdan cheklanmagan mikkorda daromad (foйда) olish va uni o‘z ixtiyoriga ko‘ra tasarruf etish;
- o‘z mahsuloti (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish chiqindilarini bozor kon’yunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo‘yicha yoki shartnoma asosida realizatsiya qilish;
- binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa mol-mulkni olish va (yoki) ijaraga olish, shu jumladan lizing yo‘li bilan;
- belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish.

Mamlakatimizda qisqa davrda to‘plangan tajribalarimiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim omili ekanligini isbotladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o‘zgarib

turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda katta rol o'ynaydi. Bu sohaning mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlarning o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ijobiy roli uning turli maqsadlarga yo'naltirilgan vazifalarni samarali hal etishga qaratilganligidadir (5-rasm).



5-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini milliy iqtisodiyotga ta'sir etish yo'nalishlari¹⁰

¹⁰ Muallif tomonidan tuzildi

Umuman, mamlakatda qulay tadbirkorlik muhitini yaratishga qaratilgan katta hajmdagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati subyektlaridan biri sifatida oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilishi milliy an'analarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos bo'lib tushdi. Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanadi.

Oilaviy korxona oilaviy tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir. Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chikarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya kilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladi. Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin¹¹.

Ayniqsa, yangi tahrirdagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi uchun barcha asosiy kafolat va shartlar mustahkamlab qo'yildi. Mazkur qonunda kichik tadbirkorlik subyektlarining huquqiy maqomi belgilab qo'yilgan. Ularga quyidagilar kiradi (3-jadval):

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- mikrofirmalar;
- kichik korxonalar¹².

¹¹O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni.//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 17-son, 188-modda.

¹²"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisinnng Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 140-modda; 2001 y., 5-son, 89-modda; 2003 y., 5-son, 67-modda; 2004 y- 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi konun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son, 287-modda; 51-son, 514-modda; 2006 y., 12-13-son, 100-modda; 37-38-son, 371-modda; 41-son, 405-modda; 2007 y., 52-son, 533-modda; 2008 y., 52-son, 513-modda; 2009 y., 52-son, 555-modda; 2010 y., 37-son, 314-modda, 50-son, 469-moddda; 2011 y., 16-son, 162-modda, 37-son, 374-modda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik jismoniy shaxs tomonidan yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

3-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni¹³

Kichik tadbirkorlik subyektlari	Tarmoqlar	Ish bilan band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni
Mikrofirmalar	Ishlab chiqarish tarmoqlarida	Ko'pi bilan - 20 kishi
	Xizmat ko'rsatish sohasida va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoklarda	Ko'pi bilan - 10 kishi
	Ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida	Ko'pi bilan - 5 kishi
Kichik korxonalar	Yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati, qurilish materiallari sanoati, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida	Ko'pi bilan - 100 kishi
	Qurilish materiallari sanoati, yengil va oziq-ovkat sanoatida	Ko'pi bilan - 200 kishi
	Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilgi-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat ishlab chiqarish sohalarida	Ko'pi bilan - 50 kishi

¹³ "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi PF-4609-sonli "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

	Fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalarda	Ko'pi bilan - 25 kishi
--	--	------------------------

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va dehqon xo'jaligi shakllarida amalga oshirishi mumkin. O'zbekistonda ishbilarmonlik va tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash, jahon amaliyotida umum qabul qilingan biznesni yuritish sharoitlarini baholash mezonlari tizimini joriy etish maqsadida 2014 yilning 1 iyulidan boshlab qurilish materiallari sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoatidagi kichik korxonalarda xodimlarning cheklangan soni yiliga o'rta hisobda amaldagidan ikki baravarga - 200 kishigacha oshirildi¹⁴.


Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun ko'pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishli haq to'lagan holda jalb etishga haqli ekanligi belgilangan. Kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'rtacha yillik soniga o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xarakterdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlar, shuningdek, unitar (shu'ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlar ham kiradi.

Bozor iqtisodiyotining shakllanish tezligiga qarab tadbirkorlik ham rivojlanib borishi kerak. Tadbirkorlik faoliyatini belgilovchi xususiyatlardan yana biri uning tashkil etilishi usulidir. Bu jarayon stixiyali yoki tashkiliy ravishda yuz berishi mumkin. Tarixan bu jarayon stixiyali paydo bo'lib kelgan. Lekin hozir bunday bo'lishi mumkin emas. Chunki stixiyali jarayon uchun juda uzoq vaqt kerak va u salbiy oqibatlariga olib keladi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iklimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni //O'zbekiston Respublikasi konun hujjatlari to'plami, 2014 y., 15-son, 163-modda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mahalliy iqtisodiy holatga katta ta'sir ko'rsatib, yangi ish joylari yaratadi, iqtisodiy asosni kuchaytiradi. Shuning uchun ham bunday tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotda eng ahamiyatlidir (6-rasm).

Mustaqilimizning dastlabki yillaridan davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muntazam qo'llab-quvvatlanishi, qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, berilgan imtiyozlar natijasida mazkur soha mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida, aholi bandligini ta'minlashda o'zining ijobiy hissasini qo'shmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik fuqarolar uchun yangi ish o'rinlarini ochish, barqaror daromad manbalarini yaratishning eng muhim omiliga aylanayotganligi bois mamlakatimizning ish bilan band aholining 74 foizdan ortig'i aynan shu sohada mehnat qilmoqda. Jumladan, jadvaldan ko'rish mumkinki KBXTning iqtisodiyotda band bo'lganlar soni yildan yilga barqaror o'sish darajada bo'lmoqda (2017 yilda 10587,7 ming kishi).



6-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishining muhim jihatlari va xususiyatlari¹⁵

¹⁵ Muallif tomonidan tuzildi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotdagi roli, o'zni haqida gap yuritish ekanmiz, avvalo daromadlarning o'sishi, aholi iste'molining ortib borishini tasavvur etamiz. Chunki har bir mamlakatda tadbirkorlik rivoji har bir tadbir, har bir ishlovchining individual daromadlari o'sib borishiga va natijada umuman, milliy daromadning ortib borishiga, shaxsiy iste'mollar ko'payib, aholi turmush darajasi ko'tarilishiga olib kelishini ko'ramiz. Eng rivoj topgan, qudratli iqtisodiyotga erishgan va aholisining turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar muvaffaqiyatlari tadbirkorlik taraqqiyoti natijasidir.

1.3. Innovasion tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ushbu sohani iqtisodiy tizimdagi ko'lami va sohalarini yanada kengaytirish, aholini o'z biznesini tashkil etish asosida daromadlik darajasi, shu asnoda, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu vazifani samarali hal etish yo'nalishida davlat tomonidan bir qator chora-tadbirlar va sohani rag'batlantiruvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan hamda bu jarayon davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, lisenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra 2014 yil oxirigacha barcha tadbirkorlik sub'yektlari hisobotlarni va tegishli xujjatlarni topshirishning elektron tizimiga o'tish belgilab qo'yilgan.

Soliq to'lovchilar bilan o'zaro aloqada soliq idoralari avtomatlashgan tizimlarni joriy etishlari, konsalting va boshqa masalalarda interfaol xizmatlar ko'rsatish ko'lami kengayadi. Bundan tashqari, kichik biznes sub'yektlari uchun ta'sis xujjatlarning notarial tasdiqlangan nusxalarini taqdim qilish, davlat

ro'yxatidan o'tgunga qadar ustav fondining bir qismini shakllantirish, qo'shimcha ravishda tijorat banklarida milliy valyutada hisob raqami ochganlik uchun kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan to'lov undirish hamda hisob raqami ochishda notarial tasdiqlangan imzo namunalarini taqdim etish talablari bekor qilindi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 3 yil davomida rejali soliq tekshiruvlaridan, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan., ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlayotgan tadbirkorlik sub'yektlari esa 3 yil davomida soliq tekshiruvlaridan ozod etilishi ham qo'shimcha qulaylikni yaratmoqda.

Kichik korxonalar uchun soliq hisobotlari 2000 yilga nisbatan 1.7 marta qisqartirilgani, ularni elektron shaklda amalga oshirilishi moddiy va ma'muriy xarajatlarni tubdan kamaytirishga xizmat qilmoqda. Hisobotlarni aloqaning elektron yo'llari bo'yicha topshirishning yuzma-yuz aloqasiz shakllarini faol joriy etish natijasida bugungi kunda tadbirkorlik sub'yektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklarasiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda.

Tadbirkorlik sub'yektlari uchun tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va rivojlantirish uchun qulay muhitni barpo etishda bir qator choralar ko'rilgan bo'lib, buning natijasida eksport-import munosabatlariga taaluqli bo'lgan 20 dan ortiq xujjat bekor qilindi. Shu o'rinda yaqinda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari eksportini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bank qoshida kichik biznes sub'yektlari uchun eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etilishiga zamin yaratdi. Mazkur tadbirlar ta'sirida kichik biznes sub'yektlarining soni so'nggi uch yilda 2 barobarga ortdi. Tahlillarning ko'rsatishicha, xususiy tadbirkorlik dastlab savdo va umumiy ovqatlanish sohasida, keyinchalik

xizmatlar va aloqa sohalari, shuningdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash hisobiga rivojlangan bo‘lsa, ayni paytda u kirib bormagan soha deyarli qolmadi.

Ilg‘or ilm-fan va texnika yutuqlariga asoslangan sanoat tarmoqlari, farmakologiya va farmaseptika, axborot-kommunikasiya tizimi, muqobil energetika turlaridan foydalanish – bularning barchasida kichik biznes sub‘yektlari samarali faoliyat yuritib, ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlarga to‘ldirmoqda.

Mustaqillik yillari davomida asosiy iste‘mol tovarlarining importidan ko‘p turdagi oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa xalq iste‘moli mollarini eksport qilish darajasiga erishildi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 56 foizni, mehnatga layoqatli aholining 76,5 foizdan ziyodi ayni shu sohada band ekanligi rivojlangan mamlakatlardagi ko‘rsatkichga yaqinligini ifoda etadi¹⁶.

Istiqboldagi asosiy strategik yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni keltirish lozim, deb hisoblaymiz:

- xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, texnikaviy va investisiyaviy muhitni shakllantirish;
- kichik biznes sub‘yektlarining milliy va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini yanada oshirish;
- sohaning milliy iqtisodiyotdagi va tashqi savdodagi ulushini ko‘paytirish;
- kichik biznes sub‘yektlarini tarkibiy jihatdan diversifikasiyalash;
- hududlarda ishbilarmonlik muhitining holati va rivojlanish darajasini ifodalovchi indikatorlar tizimini joriy etish

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida. Manba www.stat.uz

- hududlarda tadbirkorlikka xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmalar (konsalting, rekruting, marketing, rieltorlik, auditorlik xizmatlari va boshqalar) barpo etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 sentyabrdagi "Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan iste'dodli dasturchilarni qo'llab-quvvatlash va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan aniq vazifalar qo'yilgan. Shu bilan birga, mazkur sohada o'z biznesini tashkil etadigan korxonalarga 2017 yil 1 yanvargacha barcha turdagi soliqlardan, majburiy to'lovlar to'lashdan ozod qilinishi hamda import qilinayotgan uskuna, butlovchi qism va detallar bo'yicha boj to'lovlaridan imtiyoz berilishi ko'zda tutilgan. Mazkur xujjatlarda ko'zda tutilgan ishlar o'z navbatida yuqoridagi xo'jalik sub'yektlarining kelgusi ish faoliyatini yanada rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy rivojlanishning bugungi bosqichida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning tayanch omillaridan biri hisoblanib, olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi xususiy tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish orqali iqtisodiyot tarmoq va sohalarini jadal rivojlantirishdan iborat.

Mamlakatimizda 2011-2021 yillar davomidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlik ulushining o'zgarishi ma'lum bir tebranishlarga ega bo'lib, ushbu tebranishlarni mamlakat darajasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni va mohiyati bilan izohlash mumkin. Jumladan, 2011-2018 yillar davomida kichik biznes faoliyatining barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat mahsuloti hajmi, qurilish ishlari hajmi, bandlik darajasi, eksport va import hajmidagi ulushi barqaror o'sib borganligini kuzatish mumkin. Xususan, kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ushbu davrda 2011 yildagi 61,9

% dan 2018 yilda 62,4 % ga, boshqa ko'rsatkichlarda ham sezilarli darajada ortib borganligi ko'rinadi. 2019 yildan boshlab ushbu ko'rsatkichlarda kichik biznes faoliyatining ulushi aniq qonuniyatga asosan pasayib borgan (4-jadval).

O'tgan 11 yil davomidagi mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi kichik biznesning ulushi bo'yicha ko'rsatkichlar yuqorida aytib o'tilganidek, aniq qonuniyat asosidagi o'zgarish trendiga ega bo'lgan. 2018 yildan keyingi davrda mamlakatimizda kichik biznes bilan parallel ravishda yirik biznesning rivojlantirilishi, shu jumladan, tadbirkorlik sub'yektlari hajmining yiriklashuvi natijasida kichik biznesning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi ma'lum darajada pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

4-jadval. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'm¹⁷

Ko'rsatkichlar	Yillar										
	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Sanoat	13586,8	17114,6	23312,0	30907,0	39643,5	50654,5	61367,8	87962,0	83344,2	103020,8	121719,2
Qurilish	6188,3	7925,5	10377,7	13944,9	16954,0	19671,0	22469,4	37451,7	53960,9	63866,6	77762,0
Bandlik	8950,7	9239,7	9604,0	9950,8	10170,4	10397,5	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7
Ekspart (mln AQSH dollari)	2826,2	1910,5	3752,3	3657,8	3377,7	3139,2	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3711,2
Import (mln AQSH dollari)	3895,5	4946,0	5909,4	6352,6	5523,1	5676,8	7511,9	10916,2	14972,2	10943,3	12389,0
Savdo	24741,9	32242,9	40564,5	50197,8	61972,3	78935,6	92973,0	114896,4	138920,7	164106,1	204787,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	46704,5	56926,6	67510,7	82957,2	101197,5	118011,4	152010,5	191759,2	219466,9	253238,2	307280,2
Xizmatlar	19556,5	24841,8	31409,1	40187,9	47269,6	61346,2	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7
Yuk tashish (mln tn)	292,0	304,3	352,8	416,1	472,8	538,6	548,8	611,7	641,0	638,9	678,9
Yuk aylanmasi (mln tn/km)	6894,3	7271,9	7919,1	8632,9	9225,1	10072,4	10444,4	11657,7	12152,3	12304,6	13108,1
Yo'lovchi tashish (mln yo'lovchi)	3416,2	3687,9	3953,8	4224,5	4486,3	4866,5	5037,5	5242,6	5345,0	4904,8	5237,6
Yo'lovchi aylanmasi	74320,7	80210,0	86183,3	93024,7	99872,8	107789,7	111435,0	115335,2	117412,7	107766,7	114681,5

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2011-2021 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.stat.uz

(mln yo'lovchi/km)											
---------------------------	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Biroq bu miqdor jihatidan ham kichik biznes sub'yektlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tarkibidagi qiymati kamaygan, degan xulosaga kelish noto'g'ri ekanligini ko'rsatadi, chunki dinamik qatordagi ko'rsatkichlarning yillar davomida miqdor jihatidan o'sib borganligini ko'rish mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, iqtisodiyotning agrar sohasida kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni o'tgan 9 yil davomida 5 martadan ko'proq o'sgan, ya'ni 2013 yilda tarmoqda 189867 birlik kichik biznes sub'yektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2021 yil yakunida ularning soni 462834 birlikni tashkil etgan.

5-jadval. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushining o'zgarishi, %da¹⁸

Ko'rsatkichlar	Yillar											2021 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish, +, -
	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
YAIM	61,9	60,8	60,9	61,9	64,6	66,8	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	-7,0
Sanoat	28,6	29,7	33,0	36,8	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	-1,6
Qurilish	67,6	70,0	70,6	69,5	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	4,8
Bandlik	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	-0,7
Eksport	18,8	14,0	26,2	27,0	27,0	26,0	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	3,5
Import	34,3	38,6	42,4	45,4	44,5	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	14,4

Sanoat tarmoqlarida esa, tarmoqdagi ishlab chiqarish sharoitlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'yektlari miqdorining ortishi qishloq xo'jaligi tarmog'iga nisbatan ancha sust borayotganligini ko'rish mumkin. Agar 2013 yilda tarmoqda jami 16627 birlik kichik biznes sub'yektlari

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2011-2021 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.stat.uz

faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2021 yilga kelib ularning soni 45897 birlikka yetgan. Boshqacha aytganda sanoat tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagiga qaraganda deyarli 10 marta kam. Tadbirkorlik sub'yektlari sonining tez ortib borish holati xizmatlar sohasining keskin rivojlanishi natijasida tashish va saqlash xizmatlari sohasida juda faol ortib bormoqda. Ushbu sohada 2013 yilda jami 57376 birlik tadbirkorlik sub'yektlari faoliyat olib borgan bo'lsa, 2021 yil yakunida ularning soni 156539 birlikka yetgan yoki boshqacha aytganda o'zgarish 3 martaga yaqinroqni tashkil etgan.

6-jadval. Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni, birlik¹⁹

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	189867	196014	207104	210594	229666	262930	334767	411203	462834
Sanoat	16627	16739	17357	17962	20530	23975	28847	40719	45897
Qurilish	36128	38977	41066	42847	48566	56233	69970	82746	90313
Savdo	18374	19616	20863	21790	23807	28955	36021	40695	43410
Tashish va saqlash	57376	57690	58930	61214	62714	70457	100573	131597	156539
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7813	8486	9488	10631	11779	13121	15157	17056	18045
Axborot va aloqa	11905	12969	14194	15293	16964	19656	25461	29947	32948
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	6396	6443	6327	6201	6167	6738	7621	9221	10247
Boshqa sohalar	5755	5695	5772	3709	4417	5364	6370	7588	8814

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari sonining mamlakatimiz hududlari kesimidagi tahlili ushbu turdagi faoliyatning mamlakatimizning qaysi hududlarida faol rivojlanib borayotganligini yoki, boshqacha aytganda, qaysi

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2011-2021 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.stat.uz

hudud yoki mintaqaning kichik biznes asosida rivojlanib borayotganligini aniqroq ko‘rish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining 2013-2021 yillar oralig‘idagi davrni qamrab oluvchi vaqtli qatorlardan iborat statistik ma‘lumotlaridan mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘yektlarining hududlar kesimidagi rivojlanish darajasini tahlil qilishga harakat qilamiz (7-jadval).

7-jadval. Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘yektlari soni, birlik²⁰

Hududlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O‘zbekiston Respublikasi	189867	196014	207104	210594	229666	262930	334767	411203	462834
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8383	9327	9642	9638	10539	11985	14677	18288	19998
Andijon	19966	20872	21982	21713	20342	22560	25807	31683	34999
Buxoro	8724	9386	11141	11615	12648	14805	19981	24809	27690
Jizzax	7183	7505	7881	8013	9310	11197	14011	17725	19463
Qashqadaryo	16087	15808	14870	13785	14347	16218	20304	25297	31152
Navoiy	6219	6309	6728	6731	7569	9104	14885	17931	20472
Namangan	12292	13080	14094	14667	15949	16975	21461	26531	28949
Samarqand	12648	12860	13840	13981	16005	19629	25643	33114	40724
Surxondaryo	10590	9062	9061	9418	10409	11618	15509	21563	24395
Sirdaryo	6143	6403	6499	6954	7462	8318	11026	13360	13808
Toshkent	17848	19009	19546	19458	21647	25410	32602	40223	44156
Farg‘ona	16113	16920	18108	17802	20225	23304	29300	36117	40403
Xorazm	9911	10393	10298	10384	10900	11815	15453	18875	21984
Toshkent sh.	37760	39080	43414	46435	52314	59992	74108	85687	94641

7-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, mamlakatimiz hududlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub‘yektlari soni o‘tgan 9 yil davomida 5 martadan ko‘proq o‘sgan, ya‘ni 2013 yilda jami 189867 birlik kichik biznes sub‘yektlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2021 yil yakunida ularning soni 462834 birlikni tashkil etgan.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes sub‘yektlari soni bo‘yicha Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Andijon va Qashqadaryo viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishsa, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi mamlakat o‘rtacha darajasidan

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2011-2021 yillar bo‘yicha ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.stat.uz

ancha past ko'rstkichga ega.

Jumladan, Toshkent shahri bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'yektlari soni o'tgan 9 yil davomida 2,5 martadan ortiqroq o'sgan. Agar 2013 yilda hududda faoliyat ko'ratayotgan kichik biznes sub'yektlari soni 37760 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yil yakuniga kelib ularning soni 94641 birlikni tashkil qilgan.

Bu ko'rsatkich ko'rilayotgan davr bo'yicha mos ravishda Toshkent viloyatida 17848 birlikdan 44156 birlikka, Samaraqand viloyatida 12648 birlikdan 40724 birlikka (3,5 marta ortgan), Farg'ona viloyatida 16113 birlikdan 44156 birlikka, Andijon viloyatida 19966 birlikdan 34999 birlikka ortgan.

Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida esa, kichik biznes sub'yektlari soni hududlarda mavjud iqtisodiy faol aholi soniga mutanosib holda rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni 2013 yilda 6143 birlikni tashkil etgan bo'lib, 2021 yilda ularning soni 13808 birlikni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichlar yillar bo'yicha mos ravishda Jizzax viloyatida 7183 birlikdan 19463 birlikka, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 8383 birlikdan 19998 birlikka ortgan. Ushbu hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'yektlari soni 9 yil davomida sezilarli darajada ortgan bo'lsa-da, hududlar miqdor jihatidan mamlakat bo'yicha eng past ko'rsatkichga ega hududlar qatorida qolmoqda.

Mamlakat bo'yicha mehnat bozoridagi ayrim ko'rsatkichlar tahlili ham mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini aniqroq tahlil qilish imkonini beradi (8-jadval).

8-jadval. O'zbekistonda yangi ish o'rinlarini yaratishda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi, ming kishi²¹

Ko'rsatkichlar nomi	2015	2017	2018	2019	2020
Yangidan tashkil etilgan ish o'rinlari	940,5	950,0	956,2	973,5	960,0

²¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2015-2020 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.stat.uz

shu jumladan:					
Kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikda	391,8	480,0	600,1	602,2	480,0
Foiz hisobida	41,7	50,5	62,8	61,9	50,0
Kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikdagi band bo'lganlarning jami iqtisodiyotdagi band bo'lganlar soniga nisbatan ulushi, foiz hisobida	74,2	74,4	74,8	75,0	76,5

5-jadvaldan ko'rinadiki, keyingi davrda mamlakatimizda yiliga 1 millionga yaqin yangi ish o'rinlari tashkil etilayotgan bo'lsa, ularning yarmidan ko'pi kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri kelmoqda.

2020 yilda kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik sohasida 680 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2015 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi²². Bu esa kichik tadbirkorlik sohasining aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish muammosini hal etishda muhim o'rin egallashini ko'rsatmoqda.

Respublikamizda kichik tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash ko'zda tutilmoqda. Milliy iqtisodiyotning muhim sohasini tashkil etuvchi tadbirkorlikning to'laqonli rivojlanishida qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi muhim o'rin tutadi.

Ushbu chora-tadbirlar orqali davlat va nazorat organlarining korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini tubdan qisqartirish, tekshirishlarni tashkil qilish tizimini yanada takomillashtirish, shu asosda tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatleri himoya qilinishini kuchaytirishning ta'minlanishi mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining jadallashuviga, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishiga va

²² <http://www.uza.uz/>

tadbirkorlik muhitining yaxshilanishiga hissa qo'shdi.

Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulk, kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 12 maydagi PF-4725-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra xususiy mulk, kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Shuningdek, 2019 yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida sug'urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun o'rnatilgan stavkaning 30 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq to'lash sharti bilan bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi berildi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga yollagan holatda kollejni bitirgandan boshlab o'n ikki oy mobaynida yollanma ishchilar uchun qat'iy belgilangan soliqdan ozod etildi.

Yuqoridagilarning barchasidan ko'rinadiki, O'zbekistonda aholi turmush farovonligini oshirishda kichik tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlarimizga berilayotgan turli soliq imtiyozlari, ro'yxatdan o'tkazish, hisobotlar topshirishning soddalashtirilishi, eksport operasialarini amalga oshirishda davlatning turli imtiyolar orqali ko'maklashuvi, tadbirkorlar faoliyatini nazoratdan o'tkazish muddatlari keskin uzaytirilgani va boshqalar mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy tadbirkorlarga keng

imkoniyatlar yaratmoqda va davlatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhiti shakllanmoqda.

I-bob bo'yicha xulosalar

1. Tashkiliy mexanizm, bu o'z tarkibiga ma'muriy-huquqiy tartibga solish, tashkiliy struktura, boshqaruvning funktsiya va usullari, mehnatni tashkil etish, axborot ta'minoti va boshqalar o'z ichiga oladi.

2. Iqtisodiy mexanizm esa o'z tarkibiga rejalashtirish va bashoratlash, narxlashtirish, moliyalashtirish va kreditlash, sug'urta, motivlashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

3. Bozor munosabatlarini rivojlantirish tadbirkorlik sub'yektlarining o'zaro mutanosib aloqada bo'lishiga va ishlab chiqarishning bozor talablari doirasida tashkil etishga bog'liq bo'lishi sir emas. Bozor qoidalari ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga olib kelib, iste'molchilar talabidan kelib chiqqan holda iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos jihatlarini shakllanishiga turtki bo'ladi.

II BOB. FARG‘ONA VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATLARINI INNOVASIONI BOSHQARISH

2.1. Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik faoliyati rivojlanishidagi o‘zgarish tendensiyalari

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikka alohida e‘tibor qaratildi. Mazkur soha ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda, aholini ish bilan ta‘minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri deb tan olindi. Shuningdek, u jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan mulkdorlar sinfining, ya‘ni o‘rta sinfnining shakllanishi va mustahkamlanishini ta‘minlovchi, jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchi, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuch sifatida qaraldi.

Davlatimiz rahbari tomonidan kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikka alohida urg‘u berilishi sohaning quyidagi qator jarayonlarni ta‘minlovchi omil sifatida baholanadi:

- iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish va rag‘batlantirish;
- yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanuvchi mahsulot va xizmatlarni kooperasiya asosida yetkazib berish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiyotdagi ikkilamchi bandlikni ta‘minlash;
- bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish;
- resurslarni tezkorlik bilan ishlab chiqarishga safarbar etish;
- davlat byudjetiga soliq tushumlari hajmining sezilarli darajada o‘shishini ta‘minlash;

- aholi daromadlarini oshirish va darajasini barqarorlashtirish va boshqalar.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining mamlakat bo'yicha rivojlanish darajasi va holati hududlar bo'yicha bir xil darajada bo'lmay, rivojlanish ko'lami va darajasi nuqtai nazaridan hududiy ko'rsatkichlar bir-biridan sezilarli tafovutga ega.

Tadqiqot jarayonida tabiiy-geografik joylashuvi, demografik ko'rsatkichlari hamda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi jihatidan mamlakatimizda o'ziga xos o'rin va xususiyatlarga ega bo'lgan Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik faoliyati rivojlanishidagi o'ziga xos o'zgarish tendensiyalarini o'rganib chiqildi.

Farg'ona viloyati aholi soni jihatidan mamlakatdagi eng ko'p aholi yashaydigan hudud hisoblansa—da, maydoni jihatidan nisbatan kichik va, shu sababli aholi zich joylashgan hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda oxirgi 9 yil davomida yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning tarkibi ma'lum bir o'zgarish tendensiyalari asosida yuz bergan.

Yalpi hududiy mahsulot hajmi viloyatda keskin ortgan bo'lsa ham ayrim tarmoqlar, xususan, sanoat tarmog'idagi yalpi sanoat mahsuloti hajmi 5,0 marta dan ortiqroq o'sgan. Jumladan, 2013 yilda viloyat sanoat tarmoqlari tomonidan 5290,8 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti yaratilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich 26329,0 mlrd so'mga yetgan (9-jadval).

9-jadval. Farg'ona viloyatining asosiy hududiy ko'rsatkichlari²³, mlrd so'mda

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Yalpi hududiy mahsulot	10427,2	13029,0	15698,7	17290,9	19837,5	26611,5	31818,4	36538,9	47331,9
Sanoat mahsuloti	5290,8	6596,4	7170,2	8040,7	9728,5	13613,8	18661,2	21610,6	26329,0
Iste'mol	1961,	2293,	2888,	3316,	3740,	4530,	7216,	7450,	10

²³ Farg'ona viloyati statistika boshqarmasining 2013-2021 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.farstat.uz

tovarlari	5	5	1	3	8	1	3	0	774,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5974,8	7459,1	9382,8	10039,4	12692,3	18007,7	18946,3	21880,3	16052,6
Asosiy kapitalga investisiyalar	2130,0	2295,3	2542,3	2643,6	2954,5	5539,1	8685,4	11320,0	11999,6
Qurilish ishlari	1089,7	1396,2	1649,0	1840,0	1969,5	2942,7	4162,8	5089,6	3059,8
Chakana savdo tovar aylanmasi	4117,7	4936,0	6150,8	7655,7	9020,4	11277,6	13744,3	15771,8	19869,2
Xizmatlar, jami	3532,0	4472,8	5256,0	6670,7	7602,2	9237,9	11684,1	13361,4	16816,5
Tashqi savdo aylanmasi	1050,4	968,3	1167,8	873,2	949,4	1353,6	1417,8	1463,1	1059,7
Eksport	416,7	442,8	381,8	395,2	514,0	484,3	574,4	556,1	573,1
Import	633,7	525,5	786,1	478,0	435,4	869,3	843,4	907,0	1098,4
Saldo	-217,0	-82,6	-404,3	-82,9	78,6	-385,1	-268,9	-350,9	-525,3

Viloyatda o'tgan yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmining jadal sur'atlar bilan ortishi hisobiga yalpi hududiy mahsulot va uning tarkibida ijobiy o'sish holati kuzatilgan. Jumladan, 2013 yilda viloyat bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar hajmi 2130,0 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 6,0 martaga o'sgan va 11999,6 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi tahlili ushbu ko'rsatkichlarning ham vaqtli qator oralig'ida, ham yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi o'zgarib borishini tahlil qilish imkonini beradi (10-jadval).

10-jadval. Farg'ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi²⁴, mlrd so'mda

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Sanoat	1721,1	2329,6	3075,2	3652,0	3864,2	5368,5	7204,9	9986,8	12746,0

²⁴ Farg'ona viloyati statistika boshqarmasining 2013-2021 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.farstat.uz

Qurilish	907,2	1212,0	1462,4	1642,7	1707,3	2707,4	3759,8	5010,9	6113,5
Bandlik, ming kishi	1129,2	1170,6	1192,5	1214,4	1229,3	1144,5	1181,7	1126,7	12027,3
Ekspart, mln AQSH dol.	93,8	104,9	140,0	142,5	227,4	221,5	306,5	319,0	395,8
Import, mln AQSH dol.	190,0	224,5	239,9	223,1	241,7	476,0	652,8	669,6	757,3
Savdo	3587,6	4350,0	5543,4	7077,6	8236,1	9957,8	12148,1	14675,2	18256,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5776,5	7244,1	9119,6	9932,9	12564,1	17493,4	18382,5	20905,4	26985,5
Xizmatlar	2603,3	3390,4	3985,9	5163,8	5742,5	6891,4	8439,6	9758,6	12443,2
Yuk tashish, mln tn	35,0	43,6	50,7	57,6	57,3	61,4	60,6	61,3	41,2
Yuk aylanmasi, mln tn/km	454,9	493,9	533,9	576,9	592,0	604,2	604,8	564,7	432,8
Yo'lovchi tashish, mln yo'lovchi	454,9	493,9	533,9	576,9	592,0	604,2	604,8	564,7	454,9
Yo'lovchi aylanmasi, mln yo'lovchi/km	9746,2	10649,9	11684,1	12631,6	13022,1	13346,0	13454,0	12513,3	9707,6

Viloyat sanoat tarmoqlarida 2013 yilda yaratilgan yalpi sanoat mahsuloti tarkibida kichik tadbirkorlik tomonidan yaratilgan qismi 1721,1 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 9 yil davomida ushbu ko'rsatkich 12746,0 mlrd so'mgacha ortgan va bu viloyatda sanoat tarmoqlari rivojlanishining mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan jadalroq sur'atga egaligini ko'rsatadi.

Viloyatda qurilish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi hududiy miqyosdagi qurilish bilan bog'liq davlat dasturlarining amalga oshirilishi sababli qolgan tarmoq va sohalarga nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichga erilishilganligini ko'rsatadi. 2013 yilda viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 907,2 mlrd so'mligi kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 7 martaga ortib, 6113,5 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Farg'ona viloyatidagi band aholi tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qamrovida ham ko'rilayotgan davrda 10 martadan ortiqroq darajadagi o'zgarish tendensiyasi kuzatiladi. Xususan, 2013 yilda kichik tadbirkorlik bandlarning 1129,2 mingini o'ziga jalb qilgan bo'lsa, 2021 yilga

kelib bu ko'rsatkich 1227,3 ming kishini qamrab olgan.

Asosiy hududiy ko'rsatkichlarning deyarli barchasi tarkibida o'tgan 9 yil mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hajmi ijobiy o'zgarishga ega bo'lganligi viloyatda kichik tadbirkorlikning ijobiy o'zgarish tendensiyalarini isbotlaydi.

Bugungi kunga kelib viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari soni 40 mingdan ortiqroqni tashkil etmoqda (11-jadval).

11-jadval. Farg'ona viloyati iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari soni²⁵, birlik

Tarmoqlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Jami	16113	16920	18108	17802	20225	23304	29300	40403
Shu jumladan:								
Qishloq va o'rmon, baliq xo'jaligi	1106	1096	1138	1217	1352	1492	1671	2081
Sanoat	3432	3954	4309	4441	5321	6215	7611	9922
Qurilish	1634	1761	1814	1789	2018	2429	2850	3518
Savdo	4424	4659	4908	4929	5454	6205	9093	14645
Tashish va saqlash	692	713	796	860	1031	1165	1386	1649
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	872	949	1004	940	1115	1344	1730	2598
Axborot va aloqa	1577	1570	1342	1458	1024	980	1018	1117
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	703	648	505	356	414	515	616	907
Boshqa turlari	1673	1570	2292	1812	2496	2959	3325	3966

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'yektlari viloyatda o'tgan 9 yil davomida 16113 nafardan 10403 nafarga ortib, ushbu qo'shimcha o'sish darajasining asosiy qismi savdo, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish hamda boshqa tarmoqlardagi iqtisodiy faollikning tez sur'atlarda rivojlanishi bilan yuz berdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari sonining hududlar kesimidagi tahlili ham viloyat tuman (shahar)lari

²⁵ Farg'ona viloyati statistika boshqarmasining 2014-2021 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.farstat.uz

kesimida tadbirkorlikning ushbu turi o'ziga hos rivojlanish tendensiyasiga egaligini ko'rsatadi (12-jadval).

12-jadval. Farg'ona viloyati shahar va tumanlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari soni²⁶, birlik

Hududlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Viloyat bo'yicha	16113	16920	18108	17802	20225	23304	29300	40403
Tuman (shahar)lar:								
Oltiariq	766	660	658	679	802	962	1313	2008
Qo'shtepa	563	561	611	581	649	716	897	1226
Bag'dod	560	539	602	618	646	724	950	1479
Buvayda	580	697	694	715	855	1010	1302	1933
Beshariq	425	453	504	456	525	624	796	1293
Quva	511	559	568	639	757	900	1223	1810
Uchko'prik	690	781	865	925	1032	1256	1554	2063
Rishton	440	406	426	418	494	573	793	1352
So'x	484	479	500	462	496	556	651	931
Toshloq	713	751	812	828	914	1046	1293	1831
O'zbekiston	751	787	826	758	851	1019	1283	1902
Farg'ona	456	470	524	539	587	693	994	1557
Dang'ara	838	899	1030	938	1039	1148	1435	2027
Furqat	354	380	385	331	408	495	648	989
Yozyovon	408	443	430	359	399	459	549	833
Farg'ona sh.	3025	3250	3570	3459	3924	4431	5369	6705
Qo'qon sh.	2547	2744	2866	2719	3095	3469	4145	5013
Quvasoy sh.	498	456	418	445	525	673	892	1398
Marg'ilon sh.	1504	1605	1819	1933	2227	2550	3213	4053

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'yektlari soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich shahar hududlariga to'g'ri kelishi savdo va xizmatlar sohasida kichik biznes sub'yektlarining yuqori ko'rsatkichga egaligini ko'rsatadi. Biroq Quvasoy shahri bo'yicha bu ko'rsatkich tumanlar bo'yicha o'rtacha darajadan ham pastroq ekanligi ko'rinadi.

Tumanlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari soni Dang'ara, Oltiariq, Buvayda va O'zbekiston tumanlarida ancha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa-da, yuqorida aytib o'tilganidek, shaharlardagi tadbirkorlik sub'yektlari sonidan ancha kam miqdorni tashkil qilgan.

²⁶ Farg'ona viloyati statistika boshqarmasining 2013-2021 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.farstat.uz

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Farg‘ona viloyatida sanoat tarmoqlari uchun baza hisoblangan, nisbatan yuqori ulushga ega qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini alohida korxona shakllari bo‘yicha tahlil qilindi (13-jadval).

Viloyat qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yaratilgan yalpi mahsulotning korxona shakllari hamda biznes turlari bo‘yicha tahlili viloyat qishloq xo‘jaligida ayrim o‘zgarishlar aniq qonuniyatlar asosida yuz berayotganligini ko‘rsatadi.

13-jadval. Farg‘ona viloyati qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi²⁷, foiz

Ko‘rsatkichlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Barcha toifadagi xo‘jaliklar	100	100	100	100	100	100	100	100
Shundan:								
Fermer xo‘jaliklari	29.8	30.9	29.2	27.1	25.5	30.4	34.9	36.3
Dehqon xo‘jaliklari	68.3	67.1	69.0	71.1	71.8	66.3	61.9	60.3
Yirik korxonalar	1.9	2.0	1.8	1.8	2.7	3.3	3.2	3.4
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushi</i>	<i>98.1</i>	<i>98.0</i>	<i>98.2</i>	<i>98.2</i>	<i>97.3</i>	<i>96.7</i>	<i>96.8</i>	<i>96.6</i>
Shu jumladan dehqonchilikda:								
Fermer xo‘jaliklari	47.6	47.6	47.5	41.9	39.2	49.3	58.6	58.0
Dehqon xo‘jaliklari	50.7	50.8	51.2	57.2	59.3	48.3	39.1	39.3
Yirik korxonalar	1.7	1.6	1.3	0.9	1.5	2.4	2.3	2.7
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushi</i>	<i>98.3</i>	<i>98.4</i>	<i>98.7</i>	<i>99.1</i>	<i>98.5</i>	<i>97.6</i>	<i>97.7</i>	<i>97.3</i>
Shu jumladan chorvachilikda:								
Fermer xo‘jaliklari	4.8	4.9	5.0	3.1	4.2	4.8	5.5	5.8
Dehqon xo‘jaliklari	92.8	92.7	92.4	93.6	91.3	90.7	90.4	89.8
Yirik korxonalar	2.4	2.4	2.6	3.3	4.5	4.5	4.1	4.3
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushi</i>	<i>97.6</i>	<i>97.6</i>	<i>97.4</i>	<i>96.7</i>	<i>95.5</i>	<i>95.5</i>	<i>95.9</i>	<i>95.7</i>

Jumladan, 2013 yilga nisbatan 2021 yilda yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibida dehqon xo‘jaliklarining ulushida qisqarish yuz berib, fermer xo‘jaliklari va yirik qishloq xo‘jalik korxonalari ulushida esa o‘sish yuz berganligi ko‘rinadi. Agar qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rstayotgan

²⁷ Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining 2013-2021 yillar bo‘yicha ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. www.farstat.uz

korxonalardan fermer va dehqon xo‘jaliklari kichik biznes sub‘yektlari ekanligini inobatga olgan holda hududiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibi tahlil qilinsa, yirik korxonalarning ulushi so‘nggi 8 yilda 1,9 % dan 3,4 % gacha ortganligini ko‘rish mumkin.

Agar yuqoridagi tahlilni qishloq xo‘jaligining dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari kesimida alohida tahlil o‘tkazilsa, ushbu ko‘rsatkichlarning har ikki tarmoqda sezilarli tafovuti mavjudligi ko‘rinadi. Agar dehqonchilik tarmog‘ida kichik tadbirkorlik sub‘yektlarining ulushi 97-99 % ni tashkil etsa, chorvachilikda bu ko‘rsatkich 95-97 % atrofida pastlagan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi boshqa hududlarga nisbatan o‘ziga hos xususiyatlarga va rivojlanishning alohida tendensiyalariga egaligini ko‘rsatadi.

2.2. Tadbirkorlik sohasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlarining SWOT tahlili

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini samarali tashkil etish, avvalo, ularni kreditlash va investisiyalash jarayonlarini mutanosib sohalarga yo‘naltirilishi bilan bog‘liq. Shunga asosan, fikrimizcha, Farg‘ona viloyatining kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining SWOT tahlili amalga oshirilgan hamda ushbu sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va xavf-xatarlar baholangan. Farg‘ona viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy salohiyatining SWOT tahlil ishlari amalga oshirildi (14-jadval).

14-jadval. Farg‘ona viloyati kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy salohiyatining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
- tadbirkorlikda qishloq xo‘jaligi, sanoatning yuqori potentsiali; - viloyatning qulay geografik holati, transport infratuzilmasi va avtotransport tizimini ilg‘or rivojlanganligi; - tadbirkorlik faoliyatini rivoji uchun mehnat	- tadbirkorlik sub‘yektlarining kredit resurslarini olish uchun, mahsulotlar ishlab chiquvchilarda garov bazasini yetarli emasligi; - yuqori sifatli va qayta ishlash uchun mahsulotlar va xizmatlar yetishtirib berish

resurslarni yetarli miqdorda mavjudligi; - tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot institutlarini mavjudligi; - qishloq aholisining umumiy salmoqda asosiy o'rinni egallashi; - moliyalash va kreditlash va sug'urta tashkilotlarning rivojlangan tizimi.	uchun zamonaviy texnologiyalarni yetishmaganligi; - boshqarish, mehnatni tashkil qilishni va resurs tejamkorlikni zamonaviy bozor tizimlaridan foydalanish yetarlicha rivojlanmaganligi; - berilayotgan imkoniyatlardan tadbirkorlik sub'yektlari yetarlicha axborotlarga ega emasligi; - qishloq joylarida kredit olish bo'yicha qiyinchiliklarning mavjud ekanligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
faoliyat yuritayotgan va yangi quriladigan korxonalar evasiga, mahsulotlarni qayta ishlash quvatini oshirish; - hududiy resurslardan samarali foydalanish (yer, ko'chmas mulk) ko'chmas mulk, bo'sh yer maydonlarini hisobga olishni takomillashtirilishi; - hududda yetishtirilgan mahsulotlarni mamlakatning boshqa xududlariga yetkazish imkoniyatlari yuqoriligi; - kreditlash va moliyaviy lizing mexanizmlardan foydalanib tadbirkorlik sub'yektlarini texnik jihatdan qayta qurish; - hudud iqtisodiyotiga ichki va tashqi investisiyalarni ko'plab va tizimli jalb qilish; - qishloqda qayta ishlash va ishlab chiqarish korxonalarini tarmog'ini yaratish; - aloqa tizimlarini almashtirish, yangi tarmoqlarni o'tkazish, mavjudlarini quvvatini oshirish - kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish; - qishloqda turizm va sog'lomlashtirish dam olishni rivojlantirish; - xududda aholining real daromadlari oshib borayotganligi; - qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkoniyati; - qishloq joylarda tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga e'tibor berilayotganligi; - qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarining rivojlanayotganligi; - xorijiy turistlarni jalb etish imkoniyati mavjudligi.	- ob-havo sharoitlarini ta'siri; - bozor sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxini barqaror emasligi; - atrof muhitni ifloslanishi; - chet eldan arzon import mahsulot kirib kelishi; - ko'p jihatdan hudud iqtisodiyotini, tabiiy monopoliyalarga bog'likligi. (elektroenergiya va gaz ta'minoti)

Tadqiqotlar asosida Farg'ona viloyatidagi tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirishda halaqit beradigan tashkiliy-iqtisodiy muammolar guruhi o'rganildi (15-jadval).

15-jadval. Hududda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirishda halaqit beradigan tashkiliy-iqtisodiy muammolar guruhi ²⁸

Infratuzulma muammolari.	Uy-joy, kommunal xo‘jaligining aloqa yo‘llarini yoyilishi.
	Uy-joy, kommunal xo‘jaligi sohasida yangi texnologiyalarni yetarlicha joriy etilmaganligi
Resurs muammolar	O‘rganilgan foydali yer osti qazilma boyliklarini yetarli darajada o‘zlashtirilmaganligi.
	Korxonalar qurilishida mahalliy xom ashyolar yetarlicha foydalanilmayotganligi
	Mineral va shifobaxsh suvlar zahirasi bazasida tibbiy davolanish korxonalar yaratish yetarlicha emasligi
Kadrlar muammosi	Mehnat bozori muammolari
	Tajribali, yetuk kadrlarning yetarli emasligi
Iqtisodiy muammolar	Energiya resurslarning narxining yuqoriligi.
	Asosiy ishlab chiqarish fondlarning ma‘naviy va jismoniy eskirganligi.
	Investision loyihalarni amalga oshirish uchun, qishloq xo‘jalik sub’yektlarining shaxsiy vositalarni yetarli emasligi
	Qishloq xo‘jalik sub’yektlarida kreditlarni ta‘minlaydigan real garovni mavjud bo‘lmaganligi.
	Mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilardan ximoya qiladigan tizimni yo‘qligi.
	Yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash imkoniyati kamligi, ularni tashqi bozorlarda sotish bo‘yicha ma‘lumotlar yetarli emasligi

Farg‘ona hududida kuchli va zaif tomonlarini imkoniyatlar va tahdidlarni o‘zaro nisbati tadqiq qilindi (16-jadval).

16-jadval. Farg‘ona hududida kuchli va zaif tomonlarini imkoniyatlar va tahdidlarni o‘zaro nisbati

SO (qanday qilib, imkoniyatlarni amalga oshirish uchun kuchli taraflardan foydalanish mumkin) 1. Qulay iqlim va hosildor yerlar tadbirkorlikning qishloq xo‘jalik tarmog‘ida mahsulotlarni yetishtirish xajmini oshirishga imkon beradi; 2. Yaxshi rivojlangan transport infratuzilmasi va yer osti qazilmalarini va tabiiy resurslarni mavjudligi xudud sanoati va qishloq xo‘jalik tarmog‘i ishlab chiqarishiga samarali investisiya kiritishga omil yaratadi. 3. Shaxsiy tomorqalardan samarali foydalanish, o‘z-o‘zini band qilish va hududning rivojlanish dasturiga aholini jalb	WO (qanday qilib, zaif tomonlar imkoniyatlarni amalga oshirilishiga xalaqit beradi) 1. Texnika va uskunalarni yuqori darajada ma‘naviy va jismoniy eskirishi o‘z vaqtida ishlarini amalga oshirish, sifatli va raqobatbardosh mahsulotni o‘z vaqtida qayta ishlash va ishlab chiqish imkonini bermaydi, bu esa mahsulot narxini oshishiga olib keladi. 2. Yangi, zamonaviy texnologiyalardan yetarlicha darajada foydalanmaslik, raqobat afzalligini oshirishga va investorlarni jalb qilinishiga xalaqit beradi. 3. Rivojlangan bozor bo‘lmagani, sog‘lom raqobat tamoyilini va aniqlikni, shu bilan
--	---

²⁸ Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

qilish imkoniyatini yaratadi. 4. Bo'sh maydonlar, yangi korxonolarni qurish uchun imkon yaratadi. 5. Moliviy infratuzilmani rivojlanishi va ipotekali kreditlash qurilish majmualariga investisiya oqimlarini tezlashishiga sharoit yaratadi.	birga ishlab chiqarishni rivojini ta'minlamaydi. 4. Garrov bazasi bo'lmagani sababli, kichik ishlab chiqaruvchilar zaruriy kredit resurslariga ruxsatga ega bo'lmaydi.
ST (tahdidni oldini olishda, qaysi kuchli taraflarni saqlab qolish lozim): 1. Yaxshi rivojlangan transport infratuzilmasi, mahaliy avtoyo'llar qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishini rivojlanishiga olib kelib, turizm - xizmat ko'rsatish imkonini beradi. 2. Injenerlik infratuzilma mavjudligi, sanoat tarmoqlari korxonalarini yaratishga va mavjud korxonalarning quvvatini oshirish imkonini beradi	WT (mavjud tahdid ta'siri sharoitida, zaif tomonlar tufayli yuzaga kelgan inqroz holatlarni bartaraf qilishga nima qilish zarur) 1. tadbirkorlik faoliyatdagi korxonalarni texnik jihatdan qayta qurish. 2. Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini bozorini rivojlantirish, bu ushbu mahsulot narxini bozorda barqaror ushlab turish imkonini beradi. 3. Tadbirkorlik sub'yektlariga xom ashyo materiallarni qayta ishlash uchun qo'shimcha quvvatlar kiritish asosida sanoatlashish jarayonlarini jadal rivojlantirish

Yuqoridagi guruhlangan omillar bo'yicha bog'liq o'zgaruvchilar sifatida tadbirkorlik sub'yektlari uchun ajratilgan kreditlar, kiritilgan investisiyalar, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar oshishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, Farg'ona viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini, ya'ni rivojlanish darajasini belgilovchi tashkiliy-iqtisodiy omillarni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

II-bob bo'yicha xulosalar

1. Kichik biznes va tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash ko'zda tutilmoqda. Milliy iqtisodiyotning muhim sohasini tashkil etuvchi tadbirkorlikning to'laqonli rivojlanishida qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi muhim o'rin tutadi.

2. Farg'ona viloyatida tadbirkorlik sub'yektlarini iqtisodiy faollik asosida rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmning samarali tashkil etilishi,

avvalo, strategik rejalashtirishga, barcha sub'yektlarning aniq maqsadlarga yo'naltirilganligiga, komplekslik, moslashuvchanlik darajalarini tarmoq va sub'yekt xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini boshqarishning bugungi holati ko'proq investisiya va kreditlarni tarmoq hamda sohalarga maqsadli yo'naltirishni talab etiladi.

3. Tadqiqot jarayonida tabiiy-geografik joylashuvi, demografik ko'rsatkichlari hamda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi jihatidan mamlakatimizda o'ziga xos o'rin va xususiyatlarga ega bo'lgan Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik faoliyati rivojlanishidagi o'ziga xos o'zgarish tendensiyalarini o'rganib chiqildi.

4. Tadbirkorlik sub'yektlari uchun ajratilgan kreditlar, kiritilgan investisiyalar, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar oshishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, Farg'ona viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini, ya'ni rivojlanish darajasini belgilovchi tashkiliy-iqtisodiy omillarni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

III-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZASIYALASH SHAROITIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INNOVASION BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INFRATUZILMALAR SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH

3.1. Tadbirkorlik faoliyatini tashkiliy-iqtisodiy boshqarish mexanizmini takomillashtirish masalalari

Jahon hamjamiyatining hozirgi rivojlanishi davlatlar iqtisodiyotining tizimli integrasiyasi, kapitalning xalqaro konsentrasiyasi, jahon bozorining va kompaniyalar xo‘jalik faoliyatining globallasuvi bilan tavsiflanadi. Buning muhim omili ilmiy-texnik taraqqiyot va ishlab chiqarishning asosiy intellektuallasuvi hisoblanadi. AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining iqtisodiy va texnologik ustunligi fan yutuqlari va yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarga egaligida namoyon bo‘ladi va bu – davlatlarning jahonda siyosiy hukmronligini ta’minlaydi. Innovasiya sohasi faoliyatining muhimligi va o‘ta muhim ahamiyatini anglagan holda, bu davlatlar hukumatlari davlat qo‘llab-quvvatlashi va mahsus davlat dasturlari orqali zudlik bilan innovasiya siyosatiga o‘tdilar. Bu davlatlardagi mahalliy kompaniyalarga yuksak texnologik sakrashni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi va boshqa mamlakatlarga nisbatan barcha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida yuqori tafovut bo‘lishini ta’minladi. Davlat strategiyasining strategik mohiyati kompaniyalarning innovasion faoliyati asosida shakllanadi, uning mazmuni yangi tovarlarni ishlab chiqarish va bozorga olib chiqish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi bilimlarni yaratish va ularni qo‘llashdan iborat bo‘ladi.

Mavjud sharoitda davlatning ilmiy-texnik siyosatini samarali joriy etishning muhim sharti fan va texnika siyosatini samarali rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida ilmiy salohiyatni, moliyaviy va moddiy resurslarni konsentrasiyalashdan (joriy etilayotgan dastur va loyihalar asosida) iborat. Umuman, markaziy bo‘g‘in sifatida respublika va mintaqa darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik siyosatning istiqboli, innovasion va investision strategiya, shuningdek,

korxona, bank va boshqa moliyaviy muassasalar strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi.

Muvaffaqiyatli innovasion rivojlanish masalalarini ko'rayotib, faqat yangiliklarning vujudga kelishi va uni tarqatish mexanizmining muhimligini anglash emas, balki joriy etiladigan yangiliklarga bo'lgan talab va unga mos keladigan taklif bozorini shakllantirishga imkon beradigan zaruriy infratuzilmani yaratish tamoyillarini ham hisobga olish lozim. Innovasiya taklif bozori talab bozoriga nisbatan ob'yektiv holda to'yingan hisoblanadi. Ma'lumki, innovasion yangi g'oyalar juda kamdan kam hollarda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Innovasion jarayonlarning tadqiqi real bo'lib ko'rinsa ham, barcha g'oyalarning faqatgina yuzdan biri, ayrim hollarda mingdan birigina tijoratda yutuqqa olib kelishini ko'rsatadi. Demak, bir g'oyani bir tomondan natijali, ikkinchi tomondan, amalga oshirish mumkin bo'lishi uchun juda ko'p takliflarni ko'rib chiqish kerak. Oqibatda, innovasiya – bu zarurlik g'oyasi va texnik imkoniyatlar g'oyasi o'rtasidagi ittifoqdir. Bu yerda o'z mohiyati jihatdan, birinchi navbatda, innovasiya tizimidagi axborot jarayonini aniqlab beradigan innovasiyaning sinergetik samarasi to'la holda namoyon bo'ladi.

Innovasion faoliyat muammolari tadqiqotlarda turlicha izohlanishiga qaramasdan, raqobatli bozor muhitida amal qiladigan kompaniyani rivojlantirishning maqsadi va strategiyasi shakllanayotgan jarayonda, innovasion faoliyatni tashkil etish va uni salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan muammolar to'plami yetarlicha o'rganilmagan.

Innovasion jarayon korxona faoliyatining barcha sohalaridagi ishlarni, har bir bo'g'imdagi rentabellikni nazorat qilish asosida balansli holda takomillashtirishdir. Barcha yangilik kiritish korxona ishining har tomonlama tizimli, kompleks tahlil qilish asosida olib boriladi, muhimi olingan natijalarni erishilgan natijalarga emas, balki shu vaqtdagi bozorning imkoniyatiga (hajmiga) taqqoslanadi. Bunday tahlildan maqsad korxonaning bozor imkoniyatlaridan har bir davrda qay darajada foydalanganligini aniqlashdir.

Yangiliklar bozorini bilim olish, innovasion kommunikasiyaning faoliyat ko'rsatish, ilmiy tovarlarni sotish sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy shakllar va mexanizmlar tizimi sifatida izohlash (aniqlash) mumkin. Bozor mexanizmi yangiliklarni sotuvchi va oluvchilar o'rtasidagi aloqani (kommunikasiyani), baho, kredit (mos foizlar bilan) va boshqa qiymat kategoriyalarini o'z ichiga oladi. Unga yana yangiliklarga bo'lgan talab va taklif, taklifni baholash tizimi va kelishilgan baholarga erishish, pul massasini qoplash (investisiya), yangilikning bahosi va boshqalar kiradi. Innovasion kommunikasiya tovar aylanishiga xizmat qiladi va innovasiya jarayonini boshqarish imkoniyatini beradigan yangiliklar bozoridagi ishtirokchilarga maqsadli yo'naltirilgan markaziy mexanizm hisoblanadi.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda umumiy ta'rifga ko'ra, innovasiya - bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashgan mahsulot, xizmat, amaliy faoliyatda qo'llaniladigan yangi yoki takomillashgan va rivojlangan texnologik jarayon ko'rinishida o'z tatbiqini topgan innovasion faoliyatning pirovard natijasidir.

Innovasion faoliyatning asosiy qoida va kategoriyalarini o'rganish uchun «innovasiya» tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini to'liq anglab yetishimiz lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda innovasiya (ingl. innovation) – yangilik, yangilikni ishlab chiqish va qo'llash, ilmiy-texnik taraqqiyotni (ITT) yangi mahsulot va texnologiyalar ko'rinishida real taraqqiyotga aylanishi, deb ta'riflanadi²⁹.

Bozor iqtisodiyotida innovasiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan, va ularga muvofiq innovasiya deganda, bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovasiya faoliyati natijasi tushuniladi.

Ushbu muammo bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda innovasion faoliyat sohasida yagona,

²⁹Борисов А.Большой экономический словарь / А.Б. Борисов. – М. :Книжный мир, 2003. С.428.

umumiy tarzda qabul qilingan terminologiya mavjud emas. Shuning uchun ham adabiyotlarni qisqacha tahlilini keltirish va innovasion faoliyat sohasidagi asosiy tushunchalarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Innovasion nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V.Zombart, V.Mitcherlix, Y.Shumpeter ishlariga to‘g‘ri kelgan. Innovasiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y.Shumpeter katta hissa qo‘shgan. Y.Shumpeter kon’yunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarish va bozor rivojlanishidagi o‘zgarishlarning yangi omillarini ajratdi³⁰ va ularga quyidagilarni kiritdi:

- yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish;
- yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarishning yangi uslubini joriy etish;
- sanoatning mazkur tarmog‘i taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o‘zlashtirish;
- xom-ashyo yangi manbasidan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tegishli tarzda qayta tashkil etilishini amalga oshirish, masalan, monopollikni ta’minlash.

Muayyan yangilik darajasini baholash va kon’yunktura siljishlarining amplitudasi va davomiyligini aniqlash uchun Y.Shumpeter yangilik mezonini kiritdi, va ushbu mezon mazkur turkumlashtirish asosini tashkil etdi. Keyinchalik, 1930-yillarda Y.Shumpeter tomonidan innovasiya tushunchasi kiritildi, va u mahsulot ishlab chiqarish, sotish, yetkazish jarayonlarida yangi yoki takomillashtirilgan texnik, texnologik, tashkiliy xarakterdagi qarorlarni qo‘llash oqibatida mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni bildirar edi. Innovasiyaning ushbu ta’rifi va Y.Shumpeterning ishlab chiqarish omillarining yangi kombinasiyalari to‘g‘risidagi konsepsiyasi innovasiyalar nazariyasiga bo‘lgan ikkita eng tarqalgan yondashuvdan birining asosini tashkil etadi. Birinchi

³⁰ Шумпетер Й. Теория экономического развития, М.: Прогресс, 2002. – С.255.

yondashuv – yangi omillar to‘g‘risidagi tushunchaga asoslangan, ikkinchisi – yangi mahsulot va texnologiyaga asoslangan.

Innovasiyalar iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash zaruriyatini hisobga olgan holda, bir qator MDH iqtisodchilari (M.Ionov, A.Kulagin, V.Loginov), innovasiyani «xarajatlar tejallishini yoki bunday tejash uchun sharoit yaratilishini ta‘minlovchi yangi mahsulot yoki xizmat, ishlab chiqarish uslubi, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa sohalaridagi yangilik»³¹ sifatida ko‘rishgan.

A.Utkin esa bozor sharoitida korxonalar muvaffaqiyatli iqtisodiy faoliyati uchun innovasiyalar muhimligini ta‘kidlagan holda, innovasiyalarni korxona iqtisodiy o‘rishini ta‘minlovchi asosiy zaxiralardan biri sifatida tavsiflagan³².

Mahalliy olimlarimizdan Sh.Otajonovning fikricha, innovasiyalar bu – yuzaga kelgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish yoki boshqa foydali samaraga erishish maqsadida yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat va boshq.), ishlab chiqarish jarayoni, yangi marketing yoki biznes yuritishda tashkiliy usul, ish joylari yoki tashqi aloqalarni tashkil etish ko‘rinishidagi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va (yoki) texnologik ishlar natijasidir³³.

M.Maxkamovanning fikricha, innovasiya termini iqtisodiyotda yangi ko‘rinishdagi mahsulotlar, iste‘mol tovarlari, xizmatlar, ishlab chiqarishni tashkil qiluvchi vositalar va usullardan foydalanish va joriy qilish maqsadida ijobiy o‘zgarishi deb tavsiflagan³⁴

Innovasiya bozorga yoki ishlab chiqarishga joriy etilganda amalga oshirilgan hisoblanadi. Shunga muvofiq texnologik innovasiya ikki xil turda bo‘ladi: mahsulot ishlab chiqarish va jarayonli turlari mavjud.

³¹ Ионов М. Инновационная сфера: состояние и перспектива // Экономист. 1993. №10. -С.62-67.

³² Уткин Э.А., Морозова Г.И., Морозова Н.И. Инновационный менеджмент. – М.: АКАЛИС, 1996. – С.192.

³³ Otajonov Sh.I. Innovasiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish i.f.d.(DSc) dissertatsiyasi, T.:TDIU, 2018., 259 b.

³⁴ Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на предприятиях машиностроения Республики Узбекистан., дисс.д.э.н., Ташкент 2004г.

Mahsulot ishlab chiqarish innovasiyasi – yangi yoki takomillashgan mahsulotni ishlab chiqarish hisoblanadi. Jarayonli innovasiya – bu yangi yoki takomillashgan mahsulotni o‘zlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishdir. Bunday mahsulotni mavjud bo‘lgan asboblari yoki ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan usullar yordamida amalga oshirib bo‘lmaydi. Amerika va Yaponiya innovasion tizimining farqi quyidagi ko‘rinishga ega: AQSHda 1/3 innovasiya jarayonli, 2/3 mahsulot ishlab chiqarish shakliga to‘g‘ri kelsa, Yaponiyada bu ko‘rsatkichlar aksincha.

Innovasiya ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lib, uning natijasi hisoblanadi. Innovasiya ilmiy-texnik taraqqiyot – mahsulot ishlab chiqarishning muhim omili, unga ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalarini takomillashtirish, yangi qonuniyatlarni ochish, atrof-muhit, hodisa va ularning xususiyatlari tahliliga tayanib, mehnat unumdorligini oshirish orqali erishiladi.

Odatda innovasiyalar bazis, takomillashgan va rasionallashtiruvchi turlarga ham bo‘linadi. Bazis innovasiya yirik ixtirolarni tatbiq etadi va yangi texnikani yaratish uning yo‘nalishini aniqlashga asos bo‘ladi, takomillashtirish innovasiyasi, odatda, kichik hamda o‘rta ixtirolarga tatbiq etiladi, uning salmog‘i taqsimlash fazasi va ilmiy texnika sikli davrida yuqori bo‘ladi. Rasionallashtiruvchi innovasiya eski avlod texnikasi va texnologiyasini qisman yangilashga yo‘naltirilgan bo‘lib, odatda, texnologik jarayonlarga to‘siq bo‘ladi (ular jamiyatga samara bermaydi yoki zarar keltiradi)

Innovasion jarayon – bu ilmiy bilimlarning innovasiyaga aylanish jarayoni bo‘lib, unga ketma-ket zanjir holatida amalga oshadigan, g‘oyadan aniq mahsulotga, texnologiya yoki xizmat ko‘rsatishga o‘tadigan va amaliyotda foydalanish uchun tarqaladigan hodisa deb qarash mumkin. Innovasion jarayon tatbiq etish bilan tugamaydi (yangi texnologiyani, xizmat ko‘rsatishning bozorda paydo bo‘lishi yoki yangi texnologiyani loyihadagi darajaga yetkazish). Bu jarayon joriy etilgandan keyin ham to‘xtamaydi, u tarqalish jarayonida ham takomillashtiriladi, samaraliroq hamda shu vaqtgacha ma‘lum bo‘lmagan yangi

iste'mol xususiyatlariga ega bo'lib boradi. Mahsulotlardan foydalanish va qo'llash uchun yangi bozorlar vujudga keladi va shu bilan birga yangi iste'molchilar paydo bo'lib, ular yangi mahsulot, xizmat ko'rsatish va yangi texnologiyani o'zlari uchun yangilik deb qabul qiladilar. Shunday qilib, bu jarayon bozor talab etadigan yangi mahsulotlarni yangi xizmatlar va yangi texnologiyalarni yaratishga yo'naltiriladi va u muhit bilan (uning yo'naltirilganli, sur'atlari, maqsadi, ijtimoiy-iqtisodiy holati) bog'liq holda amalga oshadi.

Innovation jarayon asosi – yangi texnika va texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish. Texnika – ishlab chiqarish omillari majmui, ya'ni mehnat qurollari va vositalari, bilimlar va kishilar uquvining moddiylashuvi. Texnologiya – texnikani tayyorlash va qo'llashning usullari majmui, ya'ni tabiiy jismlarning sanoat va maishiy mahsulotlarga aylanishi.

Innovation faoliyat - ilmiy natijalar va ishlanmalarni tijoratlashtirish, ishlab chiqarish texnologiyasini yangilash va sifatini oshirish, ularni ichki va tashqi bozorda samarali amalga oshirishdir.

Innovasiya va yangiliklar innovasiya faoliyati natijasida yuzaga keladi, ular o'zaro bog'liq va biri ikkinchisiz mumkin emas. Ularning asosiy farqi shundaki birinchi holatda – yangi mahsulot shakllanishi jarayoni ro'y bersa, ikkinchisida – uni tijoratlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Innovation faoliyat bu - ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, texnologik ishlarni yaratish, foydalanish va tijoratlashtirishga, shuningdek innovation infratuzilmani yaratishga qaratilgan ilmiy, texnologik, moliyaviy harakatlarni o'zida ifodalovchi faoliyat hisoblanadi³⁵.

Bir qator manbalarda «innovasiya» jarayon sifatida ko'riladi. Ushbu konsepsiyada, innovasiya vaqt mobaynida rivojlanishi va aniq ifodalangan bosqichlarga ega bo'lishi ta'kidlanadi.

Otajonov Sh.I. Innovasiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish i.f.d.(DSc) dissertasiyasi, T.:TDIU, 2018., 259 b.

Innovasiyaga ham dinamik, ham statik jihatlar xos. Statik jihatdan innovasiya – ilmiy-ishlab chiqarish siklining (IIS) pirovard natijasi sifatida qaraladi va ushbu natijalar ham o‘z muammolariga ega bo‘ladi.

«Innovasiya» va «innovation jarayon» atamalari o‘zaro yaqin bo‘lsada, ammo ular bir xil emas. Innovation jarayon innovasiyalarni yaratish, o‘zlashtirish va tarqatish bilan bog‘liqdir. Innovasiyani yaratuvchilar (novatorlar) mahsulotning hayotiylik sikli va iqtisodiy samaradorlik kabi mezonlardan keng foydalanishadi.

Innovation faoliyat xaqiqatdan innovasiyani amalga oshirishga olib keladigan yoki shu maqsad bilan ko‘zlab qilingan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat, marketing xarakatlardir. Innovation faoliyat shuningdek qandaydir aniq innovasiyani tayyorlash bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan tadqiqotlar va ishlanmalarni ham o‘z ichiga oladi.

Xalqaro tajribada innovation jarayonlarni tashkil etish bo‘yicha turli jihatlarini S.Valdayseva, V.Kabakova, A.Kazanseva, G.Krayuxina, A.Porshneva, K.Puzыnya, A.Rumyanseva va boshqa olimlar ishlarida topish mumkin. Taniqli Y.Shumpeter, G.Mensh, Dj.Forrester ishlarida iqtisodiy o‘shining innovation tarkibi konsepsiyasini ta‘minlovchi makroiqtisodiy modellar mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda biznesning 90 % qismini kichik va o‘rta biznes korxonalari tashkil etadi va ular qariyb 50 % dan ortiq ish o‘rinlarini yaratilishi va iqtisodiy rivojlanishga olib kelmoqda. Rasman tashkil etilgan kichik biznes korxonalari mamlakat YAIM ning 40 % igacha o‘z hissasini qo‘shadi. Norasmiy biznes korxonalarida bu ko‘rsatkichlar ancha yuqori. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko‘ra, 2030-yilga qadar o‘sib borayotgan ishchi kuchini bandligini ta‘minlash uchun 600 million ish o‘rni kerak bo‘ladi³⁶. Bu esa o‘z navbatida har bir mamlakatda biznes rivojini ustuvor vazifaga aylantirishni taqozo etadi.

³⁶ <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>

Iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan biriga aylanib borayotgan biznes rivojlanish jarayonlarini statistik tahlilini amalga oshirishda, uning tarkibiga kiruvchi faoliyat turlarini sohalar, xududlar bo'yicha ko'rib chiqish lozim va biznes sektorining rivojlanish jarayoni modelini ishlab chiqish, rivojlanmagan jixatlarini rivojlantirish, unga ta'sir etuvchi omillarini qanday qilib rivojlantirish lozim degan savollarga javob qidirish, kelgusidagi kutilayotgan iqtisodiy natijalarini aniqlash ushbu tadqiqotning umumiy tavsifi sanaladi

Investisiyalarning ta'sirchanligini baholash modeli natijalaridan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida investisiyalardan samarali foydalanish uchun ular faoliyatini zamonaviy, tarmoqlararo integrasion faoliyatini rag'batlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishni taqozo etadi, u quyidagi funksiyalarni bajarishi lozim: rag'batlantiruvchi va motivasion. Natijada, shaxsiy va guruhli manfaatlar moslashuviga erishiladi, kuchli tarmoqlar tomonidan kuchsiz tarmoqlar rivojlanishidan manfaatdorlik natijasida mexanizmdagi instrumentlarda ko'zda tutilgan holda kompensasiyalanadi, bu uzoq muddatli istiqbolda muayyan ijobiy motivasion moslama yaratadi (investision faollikni rag'batlantiradi).

Rag'batlantiruvchi-motivasion funksiya tarmoqlar guruhini integrasion hamkor sifatida ko'rib chiqish raqobat tahdidisiz yoki intensiv raqiblikni chegaralashda harakatlar koordinasiyasi va umumiy manfaatlar sohalarida o'zaro yaxshilanish uchun qulay sharoitlarni aniqlashga imkon beradi, keyingi investision munosabatlar rivojlanishiga motivasiyani yaratadi. Ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lgan tarmoq tomonidan salohiyati past bo'lgan tarmoqqa innovasion g'oya va ikkilamchi investisiya kiritadi. Shuningdek, o'zaro tajriba almashishni shakllantirish, tarmoqlararo investision hamkorlikni rivojlantirish talab etiladi. Natijada, kuchsiz tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati oshadi. Shunday qilib, shaxsiy va guruhli manfaatlar moslashuviga erishiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining shakllanish jarayoni zamonaviy xorijiy metodlar va tashkilotni

modernizatsiyalashtirishni investitsion ta'minlashda tashkiliy- huquqiy shakllarni o'rganish bilan o'zaro bog'langan.

Respublikada kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar dinamikasi asosida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning mavjud ahvoli va uni samarali boshqarishni tashkil etish borasidagi holat o'rganilganda, kichik biznes sub'yektlari tomonidan nooziq-ovqat mahsulotlari, xalq iste'moli mollari va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori darajadali, qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat salohiyatiga nisbatan juda past darajada ekanligi aniqlandi. Bugungi kunda tadbirkorlik sub'yektlarining barcha sohalari uchun teng imtiyoz va imkoniyatlar yaratilgan.

Iqtisodiy o'zgarishlarga tarmoq moslashuvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda **“Eksperimental moslashish”** tizimining axborotlar bazasi yaratilgandan so'ng, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, muammolarni bartaraf etish usul va vositalari aniqlanadi. Bazadagi ma'lumotlar asosida tarmoq raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va chora-tadbirlar uyg'unlashtiriladi.


Tarmoqning kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlangandan so'ng, aniq rejalar ishlab chiqiladi. Agar, boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi majburiy tartibda ishtirokchilarni o'zaro faoliyati (sub'yekt va ob'yektni boshqarish) tizimi orqali ishtirokchilar bilan shakllangan maqsad va resurslarga chegaralovlarni, natijaviylikni iqtisodiy ko'rsatkich tizimini qo'llasa hamda kerakli axborot ta'minotiga ega bo'lsa, tashqi muhit bilan samarali faoliyat yuritishga imkon beradigan xususiy, tashkiliy va iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan tuzilishdagi normalar yig'indisi sifatida ko'rib chiqish mumkin (7-rasm).

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, hududlarda tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda tarmoq xususiyatlarining barcha jihatlarini hisobga olish, tarmoqlar o'rtasidagi

uyg'unlik va tizimlilikni samarali yo'lga qo'yish talab etilmoqda.

Biznes faoliyati rivojlanish jarayoniga tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadi. Ichki omillarga korxonalarning katta-kichikligi, resurslar miqdori va uni taqsimlanishi, texnologik darajasi, mehnatni tashkil etish usullari, baho siyosati va boshqalar kiradi. Tashqi omillarga bozor kon'yunkturasi va raqobat muhiti, mol yetkazib beruvchi va iste'molchilarning xatti-harakatlari, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar, siyosiy va ijtimoiy omillar, huquqiy-me'yoriy baza, risklar kabi omillar kiradi. Shu omillarning tizimli va o'zaro harakat qonuniyatlarini hisobga olgan holda, biznes sub'yekti har tomonlama tahlil qilishi, o'z mamlakatidagi bozor vaziyatini va xorijiy davlatlar bozorini ham o'rganib chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy davlatlar amaliyotidagi biznes sohasiga berilayotgan imtiyozlar, kredit foizlarining pastligi, biznesni tashkil etishdagi qog'ozbozlikni kamligi va muddatlari qisqaligi, tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlanishi, axborotlarning raqobatchilar uchun ham ochiq va oshkoraligi ushbu mamlakatlarning yutug'i sanaladi. Bundan foydalansak, bosqichma-bosqich biznes sub'yektlariga tushuntirishlar va amaliy yordam berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.



7-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning «Eksperimental moslashish» tizimiga asoslangan iqtisodiy oʻzgarishlarga tarmoq moslashuvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

3.2. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish infratuzilmasi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlarda tadbirkorlik faoliyatini izchil rivojlantirishda tarmoqlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish zarur. Chunki, tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda tarmoqlarning maqsadi, faoliyat yuritishning asosiy funksiyalari, uning ko'rsatkichlari va xususiyatlarini aniqlash va hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tarmoq manfaatlarini ta'minlovchi «o'zaro ta'sirli rivojlanish zanjirlarini» shakllantirishning integrasion faol tizimiga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarmokdarning xududiy hamjihatligini ta'minlaydi (8-rasm).

Mexanizmdan foydalanib hududlarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investision faoliyatni rag'batlantirishning maqsadli chora- tadbirlar majmui va dasturlari ishlab chiqiladi. Fikrimizcha, tadbirkorlik sub'yektlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagi tamoyillarga asoslanishni maqsadga muvofiq deb topilgan:

tizimlilik - ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, iqtisodiy va tashkiliy jarayonlarda tarmoq tizimning tarkibiy qismi bo'lib, tarmoqni esa hudud, hududni esa yirik darajadagi, harakatdagi tizimning elementi sifatida baholanishi;

uyg'unlilik - yechilishi lozim bo'lgan masalalarni o'zaro munosabat, ochiq muloqot va o'zaro amaliy hamjihatlik asosida tarmoqlar rivojlanishini ta'minlash;

muvofiqlilik - tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy- iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda tarmoqlar maqsadi, faoliyat yuritishning asosiy funksiyalari, ularning ko'rsatkich va xususiyatlarini aniqlash hamda hisobga olish.



**8-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tarmoq manfaatlarini ta'minlovchi
«o'zaro ta'sirli rivojlanish zanjirlarini» shakllantirishning integrasion faol tizimiga
asoslangantashkiliy-iqtisodiy mexanizmi**

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy mexanizmi alohida tarmoq manfaatlarini ta'minlovchi integrasion faol tizim asosida takomillashtirish natijasida:

- mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib, tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm yaratiladi;
- tadbirkorlik sub'yektlari boshqaruv faoliyatida tarmoq va tarmoqlararo munosabatlarni shakllantiruvchi tarkibiy tuzilmalar shakllantiriladi;
- oqsayotgan tarmoqlar rivojlangan tarmoqlar ko'magi bilan yangi texnika-texnologiyalarni o'zlashtiradi, mahalliy xom ashyolardan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish yanada rivojlanadi;
- tarmoqlarning o'zaro aloqadorlikdagi munosabatlarini mujassam etgan tizimli yondashuv vujudga keladi;
- hududdagi barcha tarmoqlarning uyg'unlikdagi faoliyati ta'minlanadi, muvofiqlashtiriladi;
- tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatida sifat va natijalarni oshirgan holda mahalliy xom ashyo va resurslardan unumli foydalanish darajasi ortadi.

Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishidagi juda ham muhim va qimmatli vositalardan biri tarmoqlar faoliyati hamkorligida namoyon bo'ladi, unda muayyan jarayonlar va faoliyat turining integrasiyasiga asoslangan hamda ular orasidagi mavjud va paydo bo'ladigan o'zaro qarama-qarshiliklar, to'siqlarni kelishuv va munozaralar asosida bir-birini tushunish orqali kommunikasion tizimni yo'lga qo'yish asosida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning yangi tipi tushuniladi. Tarmoqlar hamkorligida ular uzoq muddatli, qat'iy, teng huquqli va ikki tomonlama foydali bo'lgan prinsiplarga asoslangan, jamiyat rivojidagi turli doiradagi aniq funksional soha bo'yicha chegaralanishlarni, muvofiqlashtirish va koordinasiyani ta'minlab beruvchi ma'lum shakldagi o'zaro harakat va barcha ishtirokchilarning hamkorligi inobatga olinadi.

Bunday hollarda tarmoq raqobatbardoshligini oshrishdagi savollar hamda rejalarni muhokama qilish, tadbirkorlik faoliyati olib borishga to'sqinlik

qilayotgan ma'muriy masalalarni aniqlash, biznes hamjamiyati vakillarini me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishda ishtirok etishlari uchun jalb qilish, hududiy va tarmoqli biznes klasterlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston hukumati infratuzilma loyihalarini izchil amalga oshirishga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha faol harakat qilib kelmoqda. Hokimiyat va biznes o'zaro manfaatli hamkorligining samarali shakllarini ishlab chiqish islohotlarning bir qismidir. Bugungi kunda davlat-xususiy sheriklikni ijtimoiy soha tashkilotlarida, respublikamizning chekka hududlarida ham ixcham, barcha qulayliklarga ega bolalar bog'chalari, maktablar tashkil qilinib, samarali ishlayotganida ko'rish mumkin. Zero, iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida ham ushbu amaliyotni qo'llash maqsadga muvofiq.

Xususan, hokimiyat va biznes sheriklikni rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlari ishlab chiqish, hokimiyat va biznes sheriklik loyihalarining samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqishi, loyihalarni amalga oshirishda tarmoqlararo muvofiqlashtirishni ta'minlashi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, hokimiyat va biznes sheriklikni rivojlantirish masalalarida investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil qilish ham asosiy vazifa sifatida belgilanishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati infratuzilmasi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hududlarda hokimiyat va biznes sherikchilik faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tizimni tashkil etishni talab etadi. Hududlarda tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning hokimiyat va TKM vakolatlarini integrasiyalash tizimi tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini samarali boshqarish imkonini beruvchi axborot-tahlil, resurs ta'minoti, ilmiy tadqiqot va nazoratni muvofiqlashtiruvchi tizim o'zaro bir-biri bilan bog'langan elementlarning iyerarxik munosabatlari asosida shakllangan bo'lib, murakkab ko'rinishdagi tashkiliy tuzilma hisoblanadi.

Infrastrukturaviy ta'minlash xususiyatlaridan kelib chiqib, rivojlantirish

va qo'llab-quvvatlashning barcha vosita hamda usullarini muvofiqlashtirishni talab etadi. Bundan tashqari, ko'pgina tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatning istiqbolli yo'nalishlarini mustaqil aniqlay olmaydilar, shunday ekan, mavjud berilgan imkoniyat, qo'llab-quvvatlash va rag'batlardan foydalanishning kichik korxonalar uchun samarasi pasayadi. Samarali natijaga erishishda ularga yuqori malakali yordam kerak bo'ladi. Ushbu xizmatlar Respublika savdo-sanoat palatasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lsada, viloyatda tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tizimni tashkil etish natijasi mavjud xududiy, tarmoq imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish va iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yechishga bo'lgan yondashuvlarni shakllantirish talabini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilgan maqsadli islohotlar natijasida, so'nggi yillarda mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilandi. Xususan:

- 2017 yil 1 yanvardan boshlab tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari, shuningdek qarshi tekshirishlar, shu jumladan jinoiy ishlarda, tadbirkorlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini cheklash bekor qilindi;

- 2018 yil yanvar oyidan boshlab koronavirus pandemiyasi inqirozi tufayli 2020 yilda uzaytirilgan tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirishga ikki yillik moratoriy e'lon qilindi;

- 2018 yil 1 iyundan boshlab tadbirkorlik faoliyati sohasidagi 6 turdagi lisenziyalar va ruxsatnomalar bekor qilindi, shu jumladan 17 ta 38 ta lisenziya va ruxsatnomalarni birlashtirib, 15 ta lisenziya va 10 ta ruxsatnomani berish muddati qisqartirildi;

- yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlarga yuridik shaxs tashkil qilmasdan mikrokreditlar ajratish mexanizmi soddalashtirildi;

- tadbirkorlik sub'yektlariga moliyaviy yordam ko'rsatadigan

Tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tashkil etildi;

- tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish shaklida jinoiy jazoni qo'llash taqiqlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bo'lgan mustaqil institut tashkil etildi.

O'zbekistonda 2020 yil oxiriga qadar pandemiyadan zarar ko'rgan kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab quvvatlash, rivojlantirish iqtisodiyot uchun eng muhim "o'sish nuqtasi" sifatida baholanib, quyidagi chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratildi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ortiqcha to'langan daromad solig'ini, QQSni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash orqali tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash;

- chakana savdo va xizmatlar sohasi aylanma mablag'lariga biznes uchun maqbul foiz stavkalari bo'yicha kredit ajratishni kengaytirish;

- tadbirkorlik faoliyati va raqobat muhitining erkinligini cheklovchi me'yorlarni aniqlash maqsadida qabul qilingan qonunchilik va boshqa normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish.

2021 yilda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin bo'ladi:

- kichik biznes sub'yektlari uchun mezonlarni aniq belgilash, korxonalarni tegishli biznes toifasi bo'yicha guruhlashga qarab imtiyozlar berish;

- korxonalarning hajmi, biznes-startap va texnologik innovasiyalaridan qat'iy nazar xususiy sektor korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;

- xususiy mulk huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sud tizimini isloh qilish.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, keyingi

yillarda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, kichik korxonlarga innovasiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan yangi tizimning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu turdagi islohot dasturlariga ustuvorlikning qaratilishi mamlakatimizda kichik innovasion biznesni rivojlantirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun zamin yaratadi.

Tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy usullariga quyidagilar kiradi:

- byudjet-soliq siyosati;
- pul-kredit siyosati;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish;
- iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash.

Byudjet-soliq tizimi – xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini davlat tomonidan bevosita tartibga solishning samarali dastaklaridan biri hisoblanadi.

Soliq tizimi davlat byudjetini shakllantirishning eng asosiy manbai bo'lishi bilan birga, uning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi (soliq imtiyozlari va boshqalar) vazifasi ham mavjud. Ammo, progressiv soliq tizimidan noto'g'ri foydalanish, ya'ni uning me'yoriy haddan tashqari oshirib yuborish iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu, birinchi navbatda, yuqori unum bilan mehnat qilish va yuqori daromad olishga bo'lgan manfaatni, investisiyalarga bo'lgan rag'batni yo'qqa chiqishi bilan izohlanadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida soliq dastaklari iqtisodiyotini tartibga solib turuvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda bu dastakdan kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida foydalanilmoqda. hozirgi kunda kichik tadbirkorlik sub'yektlari bir qator soliq imtiyozlaridan foydalanmoqdalar.

Pul-kredit tizimi orqali davlat tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish choralarini belgilaydi. Pul-kredit siyosati birinchi navbatda pul muomalasini sog'lomlashtirish, milliy valyutaning qadrini ko'tarish va baholarning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan chora tadbirlarni o'z ichiga oladi. Pul-

kredit tizimi orqali kichik tadbirkorlikni rag'batlantirishning bevosita va bilvosita usullari mavjud. Bevosita iqtisodiy ta'sir ko'rsatish dastaklari sifatida tadbirkorlarga maqsadli kreditlar berish, kredit berishning yuqori chegaralarini belgilash, bank foizlarining darajasi ustidan bevosita nazorat o'rnatish tadbirlarini atash mumkin.

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlanishida, hamda uni takomillashtirishda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasi, bozor infrastrukturasining ahvoli, tashkil qilingan iqtisodiy ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish saviyasi, mehnat va tabiiy manbalar, chet el investisiyalari, kreditlari, zayomlarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan tashqi, ichki omil va sharoitlarning mavjudligi iqtisodiy ishlab chiqish imkoniyatlari tizimni qayta ko'rishni taqazo etadi.

Kichik tadbirkorlikni iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish yo'lga qo'yish, eksport salohiyatini kengaytirish, mablag' bilan ta'minlashning noan'anaviy usullarini jalb etish, xorij davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyasi darajasi va asosan bozor munosabatlarini samarali yo'lga qo'yish va boshqalar asosiy omillar saqlanadi.

Kichik tadbirkorlik taraqqiyotida quyidagi asosiy yo'nalishlar dolzarb sanaladi:

- kichik korxonalar mahsulotlariga ehtiyoj va talab kon'yunkturasini o'rganish uchun respublika axborot tizimini tashkil etish;
- kichik tadbirkorlikni mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan qo'llab-quvvatlashni faollashtirish;
- mahalliy miqyosda soliq imtiyozlari ishlab chiqish;
- tadbirkorlar va xaridorlar ijtimoiy himoya kafolatini ta'minlash;
- markazlashgan resurslar manbalari bilan ta'minlash;
- kichik korxonalar uchun asosiy fondlarning amortizatsiyasi;
- moliyaviy lizing xizmatlarini rivojlantirish;

- kichik venchur korxonalarga mablag' sarflayotgan xususiy sarmoyadorlarning davlat sug'urtasi;
- kichik tadbirkorlik uchun kredit muassasalari tashkil etishga zarur sharoitlar yaratish va kreditlar olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- investisiya loyihalar haqida ma'lumotlar tizimini tashkil qilish;
- xorij sarmoyalari uchun valyuta soliq va tashqi savdoni boshqarish borasida mustahkam tizim o'rnatish va boshqalardir.

III-bob bo'yicha xulosalar

1. Respublikada kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar dinamikasi asosida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning mavjud ahvoli va uni samarali boshqarishni tashkil etish borasidagi holat o'rganilganda, kichik biznes sub'yektlari tomonidan nooziq-ovqat mahsulotlari, xalq iste'moli mollari va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori darajadali, qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat salohiyatiga nisbatan juda past darajada ekanligi aniqlandi. Bugungi kunda tadbirkorlik sub'yektlarining barcha sohalari uchun teng imtiyoz va imkoniyatlar yaratilgan.

2. Tarmoqning kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlangandan so'ng, aniq rejalar ishlab chiqiladi. Agar, boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi majburiy tartibda ishtirokchilarni o'zaro faoliyati (sub'yekt va ob'yektni boshqarish) tizimi orqali ishtirokchilar bilan shakllangan maqsad va resurslarga chegaralovlarni, natijaviylikni iqtisodiy ko'rsatkich tizimini qo'llasa hamda kerakli axborot ta'minotiga ega bo'lsa, tashqi muhit bilan samarali faoliyat yuritishga imkon beradigan xuquqiy, tashkiliy va iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan tuzilishdagi normalar yig'indisi sifatida ko'rib chiqish mumkin

3. Hokimiyat va biznes sheriklikni rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlari ishlab chiqish, hokimiyat va biznes sheriklik loyihalarining samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqishi, loyihalarni amalga oshirishda

tarmoqlararo muvofiqlashtirishni ta'minlashi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, hokimiyat va biznes sheriklikni rivojlantirish masalalarida investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil qilish ham asosiy vazifa sifatida belgilanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining boshqaruv tizimidagi o'ziga xos ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish, ushbu soha faoliyati asosiy yo'nalishlarini belgilash, tarmoqda samarali boshqaruv tizimini yaratish, shuningdek, boshqaruv faoliyati va strukturasini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarish mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi. Farg'ona viloyatida kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda boshqaruv mexanizmlari ta'sirchanligini ta'minlash asosiy yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

2. Tadbirkorlik sub'yektlari samaradorligini oshirishning fundamental asosi ularni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini qay darajada shakllantirilgani va foydalanishi bilan izohlanadi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmnı shakllantirishda elementli, ya'ni mexanizmnı tashkiliy tuzilma elementlarining o'zaro aloqadorlikdagi tizim sifatida hamda funksional, ya'ni mexanizm aniq maqsadlarga erishish uchun yo'naltirilgan faoliyat turlarining majmui deb qarash lozim.

3. Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish ularda boshqaruv tizimini takomillashtirish, investision va innovasion jarayonlarni faollashtirish, ishlab chiqarishni modernizasiyalash, ish bilan band etish va unumdorlikni oshirish imkoniyatini yaratib beradi. Amalga oshirilgan tahlil natijalari Farg'ona viloyatida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini samarali tashkil etish hamda iqtisodiy faollik asosida rivojlanishga qaratilgan iqtisodiy mexanizm tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda investisiyalarning ta'sir muvozanatini ta'minlash asosida amalga oshirilishi lozim, degan xulosaga kelish imkonini berdi.

4. Farg'ona viloyatida amalga oshirilgan tahlil natijalari tadbirkorlik sohasining innovasion rivojlanish jarayoni strategik yo'nalishini anikdash

imkonini beradi. Tadbirkorlik faoliyatining innovasion rivojlanish jarayonining strategik yo‘nalishi imkoniyatlarini inobatga olgan holda uning kuchli tomonlarini («imkoniyat kuchi») ro‘yobga chiqarishga, kuchsiz tomonlarini yo‘qqa chiqarishga va tahlikaning oldini olishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Mahsulotlar ishlab chiqarishni innovasion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish sohani rivojlanishini yangi bosqichiga chiqish imkonini beradi.

5. Tadbirkorlik faoliyati infratuzilmasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hududlarda tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini rivojlan- tirishning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilab berilgan axborot-tahlil, resurs ta‘minoti, ilmiy tadqiqot va nazoratni muvofiqlashtiruvchi tizimning tashkil etilishi asosida vakolatlarni integrasiyalash, natijada o‘zaro munosbatlarga asoslangan boshqaruv shakllanishiga erishiladi.

Tadqiqot ishida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatida quyidagilarga imkoniyat yaratib beradi:

- boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- tashkilotda ishlab chiqarish, qayta ishlash, transportirovka, saqlash va sotishning samarali tizimini yaratish;
- investision va innovasion jarayonlarni aktivlashtirish;
- ishlab chiqarishni modernizasiyalash;
- -ish bilan band etishni va unumdorlikni oshirish.

2. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- me‘yoriy-huquqiy va informasion ta‘minot;
- tashkiliy va ishlab chiqarish strukturasi;
- boshqaruv usullari va funksiyalari;
- rejalashtirish va bashoratlash;

- narxlashtirish;
- moliyalashtirish, kreditlash va sug'urta;
- mehnat motivasiyasi va boshqalar.

3.Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olib, tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmining asosiy tamoyillari quyidagilardir:

-tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmi o'zini-o'zi shakllantiradigan, tashqi muhit bilan munosabatlarda o'zini-o'zi sozlaydigan tizim. Bu tamoyil mexanizmida takomillashishga intilish, o'zgarishlarga moslashuvchanlikni bo'lishi lozimligini ta'minlaydi;

- samaradorlik tamoyili, boshqaruv organlari tomonidan qo'yilgan maqsadlarga olib boruvchi usul va vositalarni tanlash, shuningdek, maqsadlarni boshqaruv sub'yektlari va ob'yektlari o'rtasida muvofiqlashtirish;

- tejamkorlik tamoyili, minimal moliyaviy, mehnat va material xarajatlari bilan maqsadlarga samarali erishish;

- ta'sir etish vositalarining to'liqlilik va balanslashganlik tamoyili.

- boshqaruvning markazlashuv va nomarkazlashuvini muvofiqligi tamoyili.

4.Shuningdek, ma'lumotlar va kommunikasion jarayonlarni boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm konsepsiyasini amalga oshirish bosqichida eng muhim elementlardan biri iqtisodiy xo'jalik sub'yektlari amaliyotiga ularni samarali tatbiq etish hisoblanadi. Bu mexanizmni takomillashtirish iqtisodiy, ijtimoiy, informasion, boshqaruv, texnikaviy va tashkiliy effektlarni o'z ichiga olgan majmuaviy samarani olish uchun yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

5. Turli iqtisodiy darajalardagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sub'yektlariga ta'sir uni uch bosqichli modelini ishlab chiqilishiga olib keladi va biz tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni 3 blokli modelini taklif etamiz. Shunday qilib, boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqaruv sub'yektlari, boshqaruv funksiyalarini, boshqaruv ob'yektlarini, aniqlab beruvchi o'zaro aloqalar ro'yxati va tavsifi (mos keluvchi iyerarxiyani inobatga olgan holda),

boshqaruv maqsadi va vazifalarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.

6. Tadbirkorlik faoliyatini innovasion rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib, faoliyatni innovasion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratish;

- tadbirkorlik sub'yektlari boshqaruv faoliyatida innovasion soha bilan shug‘ullanuvchi tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

- yangi texnika-texnologiyalardan samarali foydalanib, mahalliy homashyolardan eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish.

6.Innovasion faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi o‘zida 3 ta iyerarxik mexanizmlarni mujassam etadi: innovasion munosabatlarni shakllantiruvchi mexanizm, innovasion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmi, innovasion jarayonlarni samaradorligini oshirishning klaster mexanizmi.

7.Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda nodavlat tashkilotlari, ilmiy markaz va institutlar, oliy ta’lim muassasalarini ham o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash infrastrukturasi mexanizmini taklif etamiz.

Xulosa qilib aytganda istiqbolda kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini yanada oshirish, uning o‘sish tendensiyalarini barqaror ta’minlash uchun yuqoridagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T: “O'zbekiston”, 2018.-74b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun (o'zgartirishlar bilan). 25 may 2000 yil. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to'g'risida”gi Qonun(o'zratirishlar bilan), 28 avgust 2003 yil. www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to'g'risida”gi Qonun(o'zratirishlar bilan), 2003 yil. www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonun (o'zratirishlar bilan), 2012 yil. www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 6 yanvardagi “Raqobat to'g'risida”gi Qonun(o'zratirishlar bilan), 2012 yil. www.lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 17-son.
8. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni(o'zratirishlar bilan), //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisinnng Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida” gi 2017 yil 29 dekabrdaqi PQ-3454 sonli qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017 yil 24 maydagi PF-5052-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 5 maydagi PQ-3697-sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PF 4725-sonli “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015 yil 28 sentabrda PQ 2412-sonli “Tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmat ko‘rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qo‘shimcha qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2016 yil 5 oktabrdagi PF 4848-sonli farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 fevraldagi “Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 12 noyabrdagi №510-sonli «O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish milliy komissiyasi to‘g‘risida” gi Qarori. <http://www.lex.uz>

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrdagi “Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshrish bilan bog‘liq tartibotlarni liberallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №379 sonli Qarori. <http://www.lex.uz>

IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari

21. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2021.

22. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.

23. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.

24. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qathi tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T: O'zbekiston, 2017.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.

26. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Nyu-York shahri, 2017 yil 19 sentabr). (“Xalq so'zi”, 2017 yil 20 sentabr, № 189(6883).

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi mahruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar.

V. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

28. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qathiyat bilan davom ettirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 2013. – 185-bet.

29. To'xliiev N. va boshq. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T.:, 2005, 254bet

30. Umurzakov U.P., Toshmatov A.J. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.:“Sano-standart”, 2014. -36b.

31. Sh.Ergashxo'jaeva. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. T. “O'zbekiston”. 2011 yil

32. Berkinov B.B., Mamatova F.X. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari.-TDIU, 2011. 6- b.

33. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: “Sharq” nashriyoti, 2007.-287b.

34. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007.-255b.

35. N.M. Maxmudov, S.O. Xomidov, A.A. Djalilov Iqtisodiy o'sish modellari, O'quv qullanma. –T.: TDIU-2016y. -245b

36. Ergasheva Sh., Uzokov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: Iktisod-moliya, 2017. 315b.

37. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q.X. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston Yozubchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. 246b.

38. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma.-T.: TDIU. 2018, -205b.

VI. Statistika ma'lumotlar to'plami

39. Qo'qon shahrining statistik axborotnomasi. 2021 yil.

40. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot - tahliliy byulleten. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Toshkent. 2017.

41. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990 - 2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011 - 2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. - T.: O'zbekiston. 2011.

42. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasining 2017-2021 yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari to'plami. / O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. T., 2017.

43. Yillik statistik to'plam 2017. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent. 2018.

44. Муминова, Э. А., Кундузова, К. И., & Умаралиев, З. Б. (2018). Модернизации экономики и инновационного развития узбекистана. In *Научно-Технический Прогресс: Социальные, Технические И Общественные Факторы* (pp. 194-198).

45. Ёрматов, И. Т. (2017). Актуальные проблемы повышения инновационного потенциала Узбекистана. *Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук*, 11(5), 70-73.

46. Жумакулов, З. И., & Кундузова, К. И. (2020). Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва озиқовқат хавфсизлигини таъминлаш. In *Минтақа Иқтисодиётини Инвестициялашининг Молиявий-Ҳуқуқий Ва Инновацион Жиҳатлари* (pp. 604-608).

47. Максудов, М. А., Ёрматов, И. Т., & Максудов, Ж. А. (2019). К вопросам эффективного использования финансовых ресурсов на предприятии. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (6-2), 57-61.

48. Кундузова, К. И. (2020). Основные условия, влияющие на рациональное размещение сельскохозяйственных культур в рыночных отношениях. *Евразийский союз ученых*, (2-5 (71)), 40-42.

49. Ёрматов, И. Т. (2018). Некоторые проблемы модернизации промышленных предприятий. In *научно-технический прогресс: социальные, технические и общественные факторы* (pp. 133-137).

50. Kunduzova, K. I. (2021). The Content of Taxes and Their Importance in Society. *International Journal on Orange Technologies*, 3(9), 117-119.

51. Кундузова, К. И., & Темиркулов, А. (2019). Организация контроля материальных затрат на предприятиях химической чистки. In *Бухгалтерский Учет: Достижения И Научные Перспективы Ххi Века* (pp. 150-153).

52. Исманов, И. Н., Хожаев, А. С., & Хабижонов, С. К. У. (2019). Вопросы совершенствования бухгалтерского учёта нематериальных активов. *Проблемы современной науки и образования*, (6 (139)), 79-81.

53. Кундузова, К. И., & Ахунова, Ш. Н. (2019). Пути развития дехканских хозяйств и повышения их эффективности. *Известия Ошского технологического университета*, (3), 273-277.

54. Хакимова, Ш. А., Хабижонов, С. К., & Хожаев, А. С. (2018). Статистический прогноз показателей производства овощей и фруктов, выращенных фермерами Ферганской области. *Бюллетень науки и практики*, 4(10), 212-218.

55. Кундузова, К. И. (2022). Совершенствовании государственного финансового контроля. *Zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish tuammolarining innovatsion yechimlari*, 88-91.

56. Ibragimovna, K. K. (2021). Accounting of tax benefits. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(5), 26-29.

57. Кундузова, К. И. (2019). Совершенствование кредитного портфеля коммерческих банков. *Проблемы современной науки и образования*, (10 (143)), 43-45.

58. Курпаяниди, К. И., & Кундузова, К. И. (2013). Совершенствования системы налогообложения субъектов предпринимательства в условиях институциональной трансформации. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (6), 129-131.

59. Кундузова, К. И. (2022, April). Об эффективности налоговой системы. In *E Conference Zone* (pp. 92-95).

60. Хожаев, А. С. (2017). Вопросы совершенствования использования статистических исследований при сборе информации в сфере плодоводства-овощеводства. *Theoretical & Applied Science*, (9), 8-13.

61. Кундузова, К. И., & Хабижонов, С. К. У. (2018). Содержание и сущность Концепции усовершенствования налоговой политики Республики Узбекистан. *Достижения науки и образования*, (19 (41)), 28-31.

62. Тошмаматов, Н., Хожаев, А. С., & Тошмаматов, С. Н. (2016). Бухгалтерия ҳисоби" фанининг предмети ва методи усуллари назарий ёндошув. *Молия ва банк иши электрон илмий журналы*, (4), 40.

63. Кундузова, К. И., & Хабижонов, С. К. У. (2018). Аудит в страховых организациях: особенности и проблемы. *Economics*, (6 (38)), 42-48.

64. Темиркулов, А. А., & Хожаев, А. С. (2021). Статистический анализ и оценка деятельности специализирующихся на плодощеводстве фермерских хозяйств в ферганской области. In *Бухгалтерский учет: достижения и научные перспективы XXI века* (pp. 197-204).

65. Кундузова, К. И. (2022, June). Проблемы налогообложение страховых компании. In *E Conference Zone* (pp. 8-15).

66. Ibragimovna, K. K. (2022). The system of indicators of the economic efficiency of land use in the context of the activities of agricultural enterprises of various forms of management Kunduzova Kumrikhon. *World Economics and Finance Bulletin*, 11, 33-37.

67. Kumrikhon, K., & Azizhon, K. (2021). Issues of Improving the Audit of Insurance Organizations. *Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance*, 2(11), 25-30.

68. Хожаев, А. С. (2019). *Экономико-статистический анализ деятельности фермерских хозяйств, специализированных в плодовоовощеводстве (на примере Ферганской области)* (Doctoral dissertation, Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам. Ташкент).

69. Azizkhon, K. (2017). The peculiarities of statistical analysis on fruit and vegetable farming (Fergana region is as an example). *Бюллетень науки и практики*, (8 (21)), 188-193.

70. Исманов, И. Н., & Хабижонов, С. К. У. (2019). Вопросы совершенствования бухгалтерского учета долгосрочных активов. *Вестник науки и образования*, (10-4 (64)), 41-45.

71. Temirkulov, A. A. (2020). The correct acceptance of the investment decision is a factor of success of implementation of the process. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 5(85), 689-692.

72. Темиркулов, А. А. (2019). Государственное управление инвестиционной деятельностью. *Проблемы современной науки и образования*, (12-2 (145)), 97-101.

73. Темиркулов, А. А., & Ахмадохунова, Х. О. (2022). Необходимость Управленческого Учета В Строительных Организациях Республики Узбекистан. *Central Asian journal of theoretical & applied sciences*, 3(4), 1-8.

74. Темиркулов, А. А. (2021). Страхование жизни: зарубежный опыт и необходимость развития в Узбекистане. *Central Asian journal of innovations on tourism management and finance*, 2(11), 56-63.

75. Темиркулов, А. А., & Хожаев, А. С. (2021). Статистический анализ и оценка деятельности специализирующихся на плодовоовощеводстве фермерских хозяйств в ферганской области. In *Бухгалтерский учет: достижения и научные перспективы XXI века* (pp. 197-204).

76. Temirkulov, A. A. (2020). Правильное принятие инвестиционного решения-фактор успеха осуществления процесса. *Theoretical & Applied Science*, (5), 689-692.

77. Кундузова, К. И., & Темиркулов, А. (2019). Организация контроля материальных затрат на предприятиях химической чистки. In *Бухгалтерский Учет: Достижения И Научные Перспективы Хxi Века* (pp. 150-153).

78. Тошмаматов, Н. Т., Темиркулов, А. А., & Хабижанов, С. К. (2019). 4.1. Особенности организации внутреннего аудита промышленного предприятия на примере Республики Узбекистан. *Аудит и финансовый анализ*, 1, 77-81.

79. Temirqulov, A. A. (2022). Transport logistikasining iqtisodiy mohiyati. *Scientific progress*, 3(1), 1110-1120.

80. Davlyatshaev, A. A., & Temirkulov, A. A. (2022). Internationalization of the Educational Process in a Market Economy. *Journal of algebraic statistics*, 13(3), 3459-3464.

81. Temirqulov, A., & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o'zni. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 121-127.

82. Shokiraliyevich, G. I., Erkinjon o'g, M. U. B., & Tohirovich, Q. N. (2022). Moliyaviy hisobotlarni mxhs bo'yicha transformatsiyasining zarurati, mohiyati va dolzarbligi. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 339-344.

83. Kudbiev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. *Журнал интегрированного образования и исследований*, 1(2), 107-112.

84. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallalari. *Scientific progress*, 3(4), 1030-1037.

85. Qudbiyev, N. T. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tish dolzarbligi-Relevance of the transition to international financial accounting standards. *SJ international journal of theoretical and practical research*, 1(2), 56-64.

VII. Internet tarmog'i veb - saytlari va manzillari

86. www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi elektron qonun hujjatlari to'plami.

87. www.mineconomi.uz. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot

vazirligining rasmiy veb - sayti.

88. www.stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb - sayti.

89. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

A.Temirqulov, H.Fozilov, V.Yakubov

The issues of management of innovative activities of small business and private business entities in Fergana region / Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2022. 106 p.



**G
B
P
S**

**Global Book Publishing Services
1211 Polk St, Orlando, FL 32805, USA
Email:- info@scientificpublication.org**

